

## OMMAVIY OFERTA ("inTend.uz" dan foydalanish uchun)

Mazkur hujjat "inTend.uz" dasturiy mahsulotidan foydalanish yuzasidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, jumladan Fuqarolik Kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi 2-qismiga muvofiq to'liq layoqati bor jismoniy shaxslar cheksiz doirasiga xizmatlarni ko'rsatish shartnomasini (keyingi o'rnlarda – Shartnoma) tuzishga "ITRUST SOLUTIONS CO" MCHJ ning rasmiy taklifi (ommaviy ofertasi) bo'lib hisoblanadi.

Foydalanuvchi tomonidan ushbu Ommaviy ofertada nazarda tutilgan harakatlarning bajarilishi uning quyidagi shartlarda so'zsiz roziligin bildiradi (Ommaviy ofertani qabul qilish (akseptlash)). Ommaviy oferta qabul qilingan paytdan boshlab Shartnoma tuzilgan deb tan olinadi.

Shartnomada bevosita nazarda tutilmagan barcha masalalarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga bo'yasinadilar.

### Atamalar va tushunchalar

**Kompaniya** – "inTend.uz"ni taqdim etuvchi "ITRUST SOLUTIONS CO" ma'suliyatni cheklangan jamiyat.

**Foydalanuvchi** – ushbu Ommaviy ofertada ko'zda tutilgan harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan "inTend.uz"dan foydalanish maqsadida ro'yxatdan o'tib, bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan Mahsulotni sotib olish niyatidagi va Kompaniya dasturiy mahsulotidan foydalangani uchun haq to'lashga tayyor bo'lgan jismoniy shaxs.

**Ishonchli cheklov miqdori** – "inTend.uz"dan foydalangan holda baholash (skoring)dan muvaffaqiyatli o'tgan Foydalanuvchiga Bank tomonidan ajratiladigan mikroqarz miqdori.

**Jamiyat** – "inTend.uz"ni Foydalanuvchilarga taqdim etish uchun Kompaniya bilan kelishuvga ega "INTEND TRADERS GROUP" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

**Hamkor** – "inTend.uz" orqali o'z Mahsulotlarini (xizmatlarini) bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan savdoga qo'ygan "inTend.uz"da qayd etilgan yuridik shaxs (yoxud yuridik shaxs bo'limgan yakka tartibdagi tadbirkor).

**Bank** – "inTend.uz" joriy etish va foydalanuvchilar orasidan keng qo'llash maqsadida "ITRUST SOLUTIONS CO" MCHJ bilan kelishuv tuzgan bank.

**Sug'urta tashkilotlari** – Bank bilan alohida tuzilgan shartnoma asosida Foydalanuvchi tomonidan Bankka mablag'larni qaytarmaslik xavfini sug'urtalovchi moliyaviy tashkilotlar.

**inTend.uz** – Bank, Hamkor, Jamiyat, Foydalanuvchi va Kompaniya o'rtasida o'zaro integratsiyalashgan va o'zaro ma'lumotlarni almashuvini ta'minlab beradigan Kompaniya tomonidan ishlab chiqilgan yoki intellektual mulk huquqidан foydalanish asosida qo'llanilayotgan yoxud intellektual mulk huquqidан foydalanish asosida olinib, Kompaniya tomonidan takommillashtirishga doir axborot-texnik ishlarini amalga oshirgan holda qo'llanilayotgan dasturiy mahsulot.

**Mahsulotlar** – Hamkor tomonidan taqdim etiladigan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari bilan muomalasi taqiqilanmagan va cheklanmagan (alkogol, tamaki hamda ularga tenglashtirilgan mahsulotlar, tibbiyot buyumlari va dori vositalari bundan mustasno) mahsulotlar, buyumlar (xizmatlar, ishlar).

**Shaxsiy kabinet** – Foydalanuvchi tomonidan Mahsulotlarni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib olish hamda Kompaniyaning dasturiy mahsulotdan foydalanganlik uchun to'lovni amalga oshirish imkonini beruvchi moliyaviy mablag'larning cheklov miqdori, tasdiqlangan buyurtmalar, shuningdek Kompaniya (muayyan shartlarda (agar ATB "Agrobank" tomonidan ishonchli cheklov miqdori ajratilganda) Jamiyat) tomonidan taqdim etiladigan xizmat uchun QR kodli virtual cheklar va Bonuslar to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtirilgan "inTend.uz"ning maxsus bo'limi.

**Bonuslar** – Kompaniya tomonidan o'rnatilgan shart va talablarga muvofiq jamlangan keshbek va/yoki ballar ko'rinishidagi tizim orqali belgilangan mablag'lar.

### Ommaviy oferta predmeti

**1.1.** Ommaviy ofertaning predmeti – Foydalanuvchining "inTend.uz"dan Mahsulotni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib olish uchun foydalanishga va dasturiy mahsulotni taqdim etish bo'yicha ko'rsatilgan xizmat uchun Kompaniyaga hamda Jamiyatga, Hamkorga, Bankka va Sug'urta tashkilotlariga to'lov qilish shartlari, talablari, javobgarligi va majburiyatlariga bo'lgan roziligi hisoblanadi.

**1.2.** Foydalanuvchi tomonidan Kompaniya bilan ushbu Ommaviy ofertani tuzish muayyan

harakatlarni ketma-ket bajarish (akseptlash) orqali amalga oshiriladi.

### 1.3. Ushbu Ommaviy ofertani akseptlash quyidagilarni bildiradi:

- ushbu oferta shartlarini Foydalanuvchi tomonidan to‘liq va so‘zsiz, hech qanday qisqartirish va/yoki cheklovgarsiz qabul qilganligini;

- muayyan shartlarda (agar ATB “Agrobank” tomonidan ishonchli cheklov miqdori ajratilganda) “inTend.uz” orqali bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olingan Mahsulot uchun vujudga keladigan muddatli to‘lov qiymatini Bank tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Jamiyatning hisob raqamiga o‘tkazishga rozilagini;

- “inTend.uz” orqali bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olingan Mahsulot qiymatini Bank tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Hamkorning hisob raqamiga o‘tkazishga rozilagini;

- ilovalarga muvofiq inTend.uz tizimidan bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olinayotgan Mahsulot qiymati hamda dasturiy mahsulotni taqdim etish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmat uchun Kompaniyaga to‘lov miqdori doirasida mablag‘lar ajratilishiga;

- 4-ilovaga muvofiq muayyan shartlarda (agar ATB “Agrobank” tomonidan ishonchli cheklov miqdori ajratilganda) inTend.uz tizimidan bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olinayotgan Mahsulot qiymati hamda dasturiy mahsulotni taqdim etish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmat uchun Jamiatga to‘lov miqdori doirasida mablag‘lar ajratilishiga;

- dasturiy mahsulotdan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmat uchun Foydalanuvchi tomonidan tasdiqlangan buyurtma doirasida Bankdan Kompaniyaning (muayyan shartlarda (agar ATB “Agrobank” tomonidan ishonchli cheklov miqdori ajratilganda) Jamiatning) hisob raqamiga pul mablag‘larini o‘tkazishga rozilik bergenligini;

- “inTend.uz” da “Shaxsiy kabinet” joriy etilganligini;

- “inTend.uz”dan foydalanishdan avval Kompaniyaning dasturiy mahsulotdan foydalanish uchun belgilangan qiymatiga, shart va talablariga to‘liq rozi bo‘lgandan keyingina “inTend.uz” orqali Kompaniyning dasturiy mahsulotni Bankdan ajratilgan mikroqarzdan foydalangan holda xarid qilishga rozilik bildirilishini;

- “inTend.uz”dan foydalanishdan avval Mahsulot bilan to‘liq tanishish, shu jumladan sifatiga va funksionaliga, to‘liq ishlayotganiga, kamchilik mavjud emasligiga, qiymatiga to‘liq rozi bo‘lgandan keyingina “inTend.uz” orqali Bankdan ajratilgan mikroqarzdan foydalangan holda Mahsulotni sotib olishni;

- Hamkorning veb-saytida (internet-portalida, internet-do‘konida) onlaysa tarzda tanlab olingan Mahsulotlarni Hamkorning o‘z kuchi bilan belgilangan shart va talablar asosida yetkazib berilishini;

- “inTend.uz”da muvaffaqiyatli xarid amalga oshirilganda, **ajratilgan mikroqarz miqdorini Bankka o‘rnatilgan muddatlarda qaytarishini**, vakolatli tashkilotlar hamda sug‘urta tashkilotlari tomonidan ular belgilagan tariflar bo‘yicha Foydalanuvchining **barcha bank hisob varaqalaridan va barcha bank kartalaridan** (shu jumladan kelgusida yangi ochiladiganlardan ham) barcha to‘lov tizimlarini foydalangan holda **AKSEPTSIZ** pul mablag‘larini yechib olinishini;

- bo‘lib-bo‘lib to‘lash jadvaliga ko‘ra Foydalanuvchining **barcha bank hisob varaqalaridan va barcha bank kartalaridan** (shu jumladan kelgusida yangi ochiladiganlardan ham) pul mablag‘larining barcha to‘lov tizimlarini foydalangan holda **AKSEPTSIZ** avtomatik tarzda yechilishini;

- barcha taqdim etilishi lozim bo‘lgan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash va uzatishga, shu jumladan Hamkor shaxsiy kabinetida Foydalanuvchining zarur ma'lumotlarini aks ettirilishiga rozi ekanligini;

- Kompaniya, Jamiat, Bank va sug‘urta tashkilotlari tomonidan yashash manzili va ish joyi bo‘yicha har qanday turdagи so‘rov va da‘volarni yozma va elektron shaklda yuborishiga rozilik berishni;

- muayyan shartlarda (agar ATB “Agrobank” tomonidan ishonchli cheklov miqdori ajratilganda) Mahsulot Hamkorga qaytarilib, buyurtma “inTend.uz”da bekor qilingan taqdirda, 4-ilovaga muvofiq sug‘urta summasini to‘lab berishga rozilagini.

**1.4.** Foydalanuvchi tomonidan ushbu Ommaviy oferta shartlarining amaldagi qonunchilikka muvofiq so‘zsiz qabul qilinishi (akseptlashi) Foydalanuvchiga “inTend.uz”ga kirish huquqini beradi.

## 2. Tizimdan foydalanish tartibi

**2.1.** Foydalanuvchi “inTend.uz” tomonidan talab qilingan barcha ma'lumotlarni kiritadi.

**2.2.** Foydalanuvchiga “inTend.uz” orqali Mahsulotni xarid qilishda sarflash va dasturdan foydalanganlik uchun haq to‘lash imkonini beruvchi ishonchli cheklov miqdorini aniqlash maqsadida, “inTend.uz” ushbu Ommaviy ofertaning 2.1.-bandiga muvofiq kiritilgan ma'lumotlarni vakolatli tashkilotlarga, shu jumladan Banklarga yo‘naltiradi. Hisobvaraq ochish tartibi vakolatli tashkilotlar

(banklar) tomonidan belgilanib, ularning shartlari ilovalarda ko'rsatilgan.

**2.3.** Agar vakolatli tashkilot Foydalanuvchiga ma'lum sabablarga ko'ra ishonchli cheklov miqdori ajratilishini rad etsa, Foydalanuvchi "inTend.uz" da ro'yxatga olinmaydi.

**2.4.** Foydalanuvchi "inTend.uz"dan faqat ishonchli cheklov miqdori doirasida foydalanishi mumkin.

**2.5.** Foydalanuvchi bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib olmoqchi bo'lgan Mahsulotni bevosita Hamkorning savdo nuqtasida yoki veb-saytida (internet-portalida, internet-do'konida) o'zi tanlab oladi.

**2.6.** Hamkor "inTend.uz" orqali Mahsulotning xaridiga oid zarur ma'lumotlar, Foydalanuvchining bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan Mahsulot sotib olish niyati hamda bo'lib-bo'lib to'lash shartlari haqida Kompaniyaga xabar beradi.

**2.7.** Foydalanuvchi o'zining "Shaxsiy kabineti"da barcha bu ma'lumotlarni tekshiradi va ularni tasdiqlaydi.

**2.8.** Hamkor "inTend.uz" orqali Kompaniyani Foydalanuvchi tomonidan tanlab olingan mahsulot bo'yicha xabardor qiladi.

**2.9.** Foydalanuvchi Hamkor vakili ishtirokida o'zi tanlab olayotgan Mahsulotning sifatini va soz ishlashini hamda Mahsulotga taaluqli barcha zarur hujjatlar mavjudligini, Mahsulotning yaroqligini, hech qanday shikastlangan joylari va kamchiliklari yo'qligini aniqlash uchun mustaqil ravishda tekshirishi lozim.

**2.10.** Foydalanuvchi tomonidan "inTend.uz" tizimiga kiritilgan ma'lumotlarni, shuningdek Mahsulot(lar)ni qabul qilganligini tasdiqlashi Mahsulot(lar)ni sotib olingan sanasi deb tan olinadi va ushbu tasdiq Mahsulot(lar)ni qabul qilish hamda Mahsulot bilan to'liq tanishganligi, Mahsulot sifatlari va to'liq ishlayotganligi, kamchilik mavjud emasligi, qiymatiga to'liq rozi bo'lgani va/yoki yetkazib berish akti bo'lib hisoblanadi.

**2.11.** Ushbu Ommaviy ofertani tasdiqlagan holda, hisobot oyining 25-kunidan keyin mahsulotni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib olayotganda, Foydalanuvchi har oyning 25-sanasigacha (25 sana ham kiradi) Bankka oylik to'lovini amalga oshirishga rozi bo'ladi.

### **3. Tomonlarning majburiyatları**

#### **3.1. Kompaniyaning majburiyatları:**

- "inTend.uz" ning axborot xavfsizligi talablariga muvofiq uzluksiz ishlashini ta'minlash;
- "inTend.uz" tizimida Foydalanuvchi Mahsulotni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib olishi mumkin bo'lgan barcha Hamkorlarni ko'rishi uchun imkoniyat yaratish;
- "inTend.uz" tizimida Foydalanuvchi bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib olishi mumkin bo'lgan barcha Mahsulotlarni ko'rishi uchun imkoniyat yaratish;
- "inTend.uz" orqali tasdiqlangan buyurtmalar to'g'risidagi ma'lumotlarning saqlanishini ta'minlash.

#### **3.2. Foydalanuvchining majburiyatları:**

- "inTend.uz" dan foydalanish chog'ida Ommaviy ofertaning barcha shartlari va talablariga rioya etish;
- "Shaxsiy kabineti"ga oid Foydalanuvchiga doir identifikatsiya ma'lumotlarining (jumladan, shaxsiy ma'lumotlarning) to'liq sir saqlanishini ta'minlash va ularni hech qachon uchinchi shaxslarga taqdim etmaslik;
- "Shaxsiy kabineti"ga oid identifikatsiya ma'lumotlarini sir saqlash shartlarining bузilishi sababli vujudga kelgan zarar uchun Kompaniyani jalg etmagan holda shaxsan o'zi javobgar bo'lish;
- bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib olinadigan mahsulotlarga nisbatan "inTend.uz"da qo'yilgan shartlar va talablarga rioya etish;
- tanlab olinayotgan Mahsulotning qiymati bilan tanishish hamda Mahsulotning sifatini tekshirish, to'liq va soz ishlashini, kamchilik mavjud emasligiga ishonch hosil qilish va barcha hujjatlari mavjudligini mustaqil tekshirish;
- Hamkordan bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib olinishi mo'ljallanayotgan Mahsulot ishga yaroqli holatda ekanligiga hamda hech qanday shikastlangan joylari va kamchiliklari yo'qligiga to'liq ishonch hosil qilish;
- Mahsulotga bog'liq har qanday muammolar yuzaga kelganda, ushbu holatning vujudga kelishiga oqilonla munosabatda bo'lgan holda, Kompaniyani jalg etmasdan, inTend.uz orqali tanlab Hamkordan olingan mahsulot yuzasidan to'g'ridan-to'g'ri Hamkorga yoki vakolatli kafolat markazlari/servislariга murojaat etish;
- tanlangan Mahsulot haqidagi ma'lumotlarning to'g'riligini (qiymati, to'lov muddati, soni va h.k) "inTend.uz"da tasdiqlashdan oldin diqqat bilan tekshirish;
- "inTend.uz"dan noqonuniy maqsadlarda foydalanmaslik (jumladan, ajratilgan mikroqarzni noqonuniy

tarzda naqdlashtirish) va Foydalanuvchi tomonidan boshqa shaxslarga, shu jumladan Hamkorga yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgarlikni Kompaniyaga o'tkazmaslik;

- Kompaniya tomonidan e'lon qilinayotgan xabarlar, bildirishnomalar va o'zgartirishlarni kuzatib borish;

- Ommaviy ofertaga keyinchalik kiritiladigan barcha o'zgartirishlarni qabul qilish.

- Ma'suliyatli bo'lib, sotib olinayotgan mahsulotni xarid qilishdan oldin unga oid barcha kirim va buxgalteriya hujjatlarini (shu jumladan, zarur hollarda bojxona hujjatlarini) tekshirish uchun mustaqil tarzda barcha choralarни ko'rish.

- Hamkor tomonidan taqdim etilgan Mahsulot mezonlari "inTend.uz"ga kiritilgan mezonlar bilan solishtirish va "inTend.uz"da elektron tarzda tasdiqlashdan oldin ularning bir xilligiga to'liq ishonch hosil qilish.

## 4. Tomonlarning huquqlari

### 4.1. Kompaniyaning huquqlari:

- "inTend.uz"ni modifikatsiya qilish va funksionalligini yaxshilash;

- Nosozliklar, xatoliklar va uzilishlar aniqlanganda, shuningdek profilaktika ishlarini olib borish va "inTend.uz"ga ruxsatsiz kirish holatlarining oldini olish maqsadida "inTend.uz" ishlashini ta'minlovchi dasturiy va/yoki texnik vositalarning faoliyatini vaqtincha to'xtatish turish;

- O'zbekiston Respublikasining nazorat, huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlaridan tegishli so'rov va talabnomalar yoxud ajratilgan mikroqarzni noqonuniy tarzda naqdlashtirish holatlari haqida ma'lumotlar kelib tushganda Foydalanuvchining "inTend.uz"ga kirishini to'xtatish;

- Mahsulotga oid har qanday muammolar vujudga kelgan taqdirda, ushbu holat va vaziyatning vujudga kelishiga oqilona munosabatda bo'lgan holda hal etish uchun Foydalanuvchini to'g'ridan-to'g'ri Hamkorga yoki vakolatli kafolat markazlari/servislariiga bevosita yo'naltirish;

- Foydalanuvchiga bonuslar taqdim etish (agar Foydalanuvchi tizim tomonidan o'rnatilgan va "Shaxsiy kabinet"da ko'rsatilgan bonuslarning amal qilish muddatlarda bonusdan foydalanmasa, ushbu bonus miqdorini kamaytirib boriladi va aks ettiriladi);

- quyidagi holatlarda "Shaxsiy kabinet"ga kirish yo'li yopib qo'yiladi:

a) Kompaniyaga boshqa Foydalanuvchilar va/yoki uchinchi shaxslardan Foydalanuvchi ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotganligi (jumladan, ajratilgan mikroqarzni noqonuniy tarzda naqdlashtirish holatlari haqida) to'g'risida xabar kelib tushganda;

b) "inTend.uz"ning biron bir qismiga noqonuniy dasturiy yoki texnik o'zgarishlar kiritish (kiritishga urinish) holati aniqlanganda.

- zarur bo'lgan hollarda Foydalanuvchining har qanday bank kartalari va hisobvaraqlaridan (kelgusida yangi ochilganlardan ham) mavjud qarzdorlikni so'ndirish uchun pul mablag'larini avtomatik tarzda yechish choralarini ko'rish. Bunday hollarda Bank va/yoki sug'urta tashkilotiga ham shunday huquqlar beriladi.

### 4.2. Foydalanuvchi quyidagilarga haqli:

- "inTend.uz"dan istalgan Mahsulotni va Kompaniyaning dasturiy ta'minotidan foydalanish uchun haqni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib olish;

- Kompaniya tomonidan taqdim etiladigan bonuslarni ushbu Ommaviy oferta talablari hamda Kompaniya saytida e'lon qilinadigan yangiliklar asosida ishlatish;

- "inTend.uz"dan to'g'ri foydalanish masalasida Kompaniyaga maslahat so'rab murojaat etish;

- "inTend.uz"da o'zining buyurtmalari haqidagi ma'lumotlarni ko'rish.

## 5. Tomonlarning javobgarligi

**5.1.** Foydalanuvchi Ommaviy oferta bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan holatlarda, Foydalanuvchi, bunda Kompaniya jalb etilmagan holda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq to'liq javobgar bo'lib hisoblanadi.

**5.2.** Foydalanuvchi tomonidan nomaqbul harakatlari (jumladan, ajratilgan mikroqarzni noqonuniy tarzda naqdlashtirish holatlari) va mazkur Ommaviy oferta shartlarining buzilishi natijasida Foydalanuvchi ko'rgan bilvosita/to'g'ridan-to'g'ri bo'lмаган yo'qotishlar yohud boy berilgan foya uchun Kompaniya javobgar emas.

**5.3.** Kompaniya "inTend.uz"ning ish faoliyatini ta'minlovchi Foydalanuvchining dasturiy-apparat majmuining nosozligi, xatoga va uzilishga yo'l qo'ygani uchun, shuningdek Kompaniyaga bog'liq bo'lмаган sabablarga ko'ra Foydalanuvchining Kompaniya dasturiy va/yoki apparat vositalariga vaqtinchalik kira olmagani uchun hamda bu bilan bog'liq yearzda ko'rilgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi.

**5.4.** Kompaniya quyidagi sabalarga ko'ra Foydalanuvchi uchun vujudga kelgan zararlari uchun javob

bermaydi:

- Foydalanuvchi “inTend.uz”ga kirish uchun foydalanayotgan uskunada yoki dasturiy ta'minotda “viruslar” yoki boshqa zararli dasturlar mavjud bo‘lsa;
- mahsulot sotib olish buyurtmasini rasmiylashtirish chog‘ida “inTend.uz”da foydalaniladigan rekvizitlar noto‘g‘ri to‘ldirilganda;
- Foydalanuvchi tomonidan Ommaviy oferta shartlari buzilgan holatlarda;
- uchinchi shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari tufayli, shu jumladan Foydalanuvchining identifikatsiya ma'lumotlaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lsa;
- Foydalanuvchi tomonidan to‘lovlarni o‘tkazish tartibi buzilganida;
- “inTend.uz”dan bevosita yoki bilvosita foydalanish paytidagi xarajatlar yoki Foydalanuvchiga yetkazilgan zarar uchun;
- Kompaniyaning aybisiz sodir bo‘lgan tizim ishidagi xatoliklar, kamchiliklar, uzilishlar va shu kabilar natijasida ro‘y berganda;
- “inTend.uz”ga kirishni ta'minlaydigan umumiyoq aloqa kanallarining sifati uchun, shuningdek Kompaniyaning ta'sir, vakolat va nazorat qilish doirasiga kirmaydigan tarmoqlarning alohida jabhalarining faoliyati uchun.

**5.5.** Agar Foydalanuvchi sotib olinayotgan Mahsulotning mezonlarini va rekvizitlarini “inTend.uz”da noto‘g‘ri tasdiqlagan bo‘lsa, bunday harakatlар natijasida ko‘rilgan zarar uchun Kompaniya javobgar hisoblanmaydi.

**5.6.** Foydalanuvchining “inTend.uz”da kirish yo‘li yopib qo‘yilgan taqdirda, Kompaniya bu haqda har qanday uchinchi taraflarni xabardor etish yoki xabardor etmaslik bo‘yicha, shuningdek ana shunday xabardor etish yoki xabardor etmaslik sabali vujudga kelgan oqibat uchun javobgar bo‘lmaydi.

#### **5.7. Foydalanuvchi:**

- Kompaniya aybi bilan bo‘lмаган holda vaqtı-vaqtı bilan “inTend.uz”ga kirish imkoniyatining cheklanishi;
- Foydalanuvchining identifikatsiya ma'lumotlaridan foydalangan holda boshqa shaxslar tomonidan “inTend.uz”ga kirishdan foydalanishi;
- bo‘lib-bo‘lib to‘lash jadvaliga ko‘ra hamda mavjud qarzdorlikni so‘ndirish maqsadida Foydalanuvchining barcha bank hisob varaqalaridan va barcha bank kartalaridan (kelgusida yangi ochiladiganlardan ham) barcha to‘lov tizimlarini foydalangan holda avtomatik tarzda (akseptsiz) yechib olinishi bilan bog‘liq har qanday majburiyatlar va xarajatlar bo‘yicha Kompaniyani to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki birgalikda javob beruvchi javobgar qilmasligiga rozilik bildiradi.

**5.8. Mahsulotni qaytarib berishda Foydalanuvchi** (agar ushbu Ommaviy ofertaga binoan Hamkor bilan ijobjiy o‘zaro qaror qilinmasa):

- Hamkorga Mahsulot(lar)ni qaytarib olishi
- Kompaniyaga (muayyan shartlarda (agar ATB “Agrobank” tomonidan ishonchli cheklov miqdori ajratilganda) Jamiyatga) ko‘rsatilgan xizmatni rad etish
- Bankka ajratilgan mikroqarz shartnomasini bekor qilish uchun yozma ravishda murojaat qiladi.

**5.8.1. Tibbiyot sohasida faoliyat olib boruvchi Hamkorlar tomonidan, agarda ushbu Hamkorlarning tibbiyot xodimlari birinchi muolajani o‘tkazishgan bo‘lsa, ko‘rsatilgan tibbiyot xizmatlaridan voz kechish va buyurtmani bekor qilish mumkin emas.**

## **6. Fors-major**

**6.1.** Ushbu Ommaviy oferta qabul qilinganidan keyin vujudga kelgan Ommaviy ofertaga oid majburiyatlarning to‘liq yoki qisman bajarilmaganligi, agar ana shunday bajarmaslik suv toshqini, yong‘in, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, urush yoki harbiy harakatlari, davlat organlarining harakatlari kabi yengib bo‘lmas kuch oqibatida sodir etilgan bo‘lsa, tomonlar hech qaysi biri javobgar hisoblanmaydi. Ushbu holatlар vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadi.

## **7. O‘zgartirishlar kiritish va bekor qilish tartibi**

**7.1.** Ommaviy ofertaga o‘zgartirishlar (qo‘srimchalar) kiritish Kompaniya tomonidan www.intend.uz saytida e’lon qilish orqali, ularning kuchga kiritilishi muddatini ko‘rsatgan holda bir tomonlama amalga oshiriladi. Foydalanuvchi ko‘rsatilgan o‘zgartirishlarga rozi bo‘lmasa, “inTend.uz”dan foydalanmasligi yoki o‘rnatilgan tartibda Ommaviy ofertani bekor qilishi mumkin.

**7.2.** Ommaviy oferta muddati belgilanmagan bo‘lib, tomonlarning tashabbusi bilan istalgan vaqtida bekor qilinishi mumkin.

**7.3. Ommaviy oferta quyidagi holatlarda bekor qilinishi mumkin:**

### **7.3.1. Foydalanuvchi tomonidan:**

- Kompaniyaga yozma yoki elektron ko‘rinishidagi ariza yuborish orqali (Kompaniyani Ommaviy oferta bekor qilinishi to‘g‘risida lozim tarzda ogohlantiruvchi boshqa shaklda bo‘lishi ham mumkin). Kompaniya tomonidan e’tirozlar mavjud bo‘lmasa, Ommaviy oferta mazkur xabarnoma olinganidan keyin 5 (besh) kun o‘tgach bekor qilingan deb hisoblanadi.

### **7.3.2. Kompaniya tomonidan:**

- Foydalanuvchi tomonidan ushbu Ommaviy oferta shartlari buzilgan taqdirda.  
- nazorat, huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlarining tegishli xabarnomasi yoxud noqonuniy tarzda naqdashtirish holatlari yuzasidan ma'lumot asosida.

## **8. Uchinchi shaxs tomonidan to‘lovlarni amalga oshirish tartibi**

**8.1.** Olingen mahsulotlar uchun Foydalanuvchi o‘z vaqtida to‘lovlar amalga oshirilmagan taqdirda, to‘lovlar uchinchi shaxs tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bunday vaziyat yuzaga kelganda, uchinchi shaxs to‘langan mablag‘larni Foydalanuvchidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qayta talab qilish huquqiga ega.

Bu holatda, uchinchi shaxs tomonidan qoplanib berilgan summa Foydalanuvchining barcha bank hisob varaqalaridan va barcha bank kartalaridan (kelgusida yangi ochiladiganlardan ham) barcha to‘lov tizimlarini foydalangan holda AKSEPTSIZ tarzda uchinchi shaxs tomonidan yechib olinadi.

## **9. Nizolarni hal etish**

**9.1.** Ommaviy ofertani bajarish borasida vujudga kelgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo‘li bilan ko‘rib chiqiladi va hal etiladi.

**9.2.** Kompaniyaga nisbatan e’tirozlar yozma shaklda taqdim etiladi va amaldagi qonunchilikda belgilangan muddat ichida ko‘rib chiqilishi shart. Tomonlar o‘zaro kelishuvga erishmagan taqdirda barcha nizolar Kompaniya joylashgan hududdagi vakolatli organ tarafidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ko‘rib chiqiladi.

**ATB «Biznesni Rivojlantirish Banki»  
hisobvarag‘ini ochish va undan foydalanish hamda  
qarzdan foydalanish bo‘yicha**

**Ommaviy oferta (Shartnomasi)**

ATB «Biznesni Rivojlantirish Banki» (bundan buyon matnda “Bank” deb ataluvchi) bir tomonidan va masofaviy xizmat ishtirokchisi bo‘lib, inTend.uz dasturi foydalanuvchisi bo‘lgan va mazkur ommaviy ofertani qabul (aksept) qilgan fuqaro (bundan buyon matnda “Mijoz” deb ataluvchi) ikkinchi tomonidan, mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

**1. Asosiy tushunchalar**

**Bank hisobvarag‘i** – bank tarafidan ochilgan, personalizatsiyalangan, intend.uz dasturida to‘lov vositasi sifatida ishlatiladigan va ajratilgan limit doirasida operatsiyalarni amalga oshirish va intend.uz dasturi orqali mahsulotlarni (xizmatlarni) muddatli to‘lov asosida xarid qilish uchun hisobvarag‘i;

**Mijoz** - inTend.uz dasturi foydalanuvchisi bo‘lgan va mazkur ofertani qabul (aksept) qilgan va milliy valyutadagi Bank hisobvarag‘idan foydalangan holda to‘lov operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega bo‘igan jismoniy shaxs (bankning mijozи);

**inTend.uz** - “iTrust Solutions Co” MCHJga taaluqli dastur bo‘lib, ushbu dastur Mijozga mahsulotni (xizmatni) muddatli to‘lov asosida xarid qilish imkoniyatini beruvchi dastur;

**Qarz (mablag‘)** – mahsulot (xizmat)ni sotib olish uchun Bank tomonidan Mijozga belgilangan limit doirasida inTend.uz orqali ajratilgan va grafikda ko‘rsatilgan muddatlarda foizsiz qaytarilishi lozim bo‘lgan pul mablag‘i;

**Grafik** – Mijozning qarz summasini teng bo‘lingan to‘lovlarga taqsimlab 12 (o‘n ikki) oy muddat ichida qaytarish majburiyati;

**To‘lovlarini qaytarish** – bank tarafidan Mijozga mahsulot (xizmat)ni xarid qilish uchun belgilangan summani bergani uchun Mijoz tomonidan ushbu mablag‘larning bankka foizsiz qaytarilishi;

**Tomonlar** – Bank va Mijoz.

**2. Shartnomaning predmeti**

2.1. Mazkur ommaviy oferta (shartnoma) Bank va Mijoz o‘rtasida Mijoz uchun onlayn tarzda Bank hisobvarag‘ini ochish va undan skoring asosida belgilangan limit doirasida foydalanish hamda hisob-kitoblar bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish munosabatlarni tartibga soladi.

2.2. Bank Mijozga mahsulot (xizmat)ni sotib olish uchun skoring o‘tkazish yo‘li bilan belgilangan limit doirasida inTend.uz orqali qarz ajratadi va Mijoz, o‘z navbatida, olingan mablag‘larni grafik bo‘yicha bankka qaytaradi.

**3. Tomonlarning majburiyatları**

**3.1. Mijozning majburiyatları:**

3.1.1. Bank hisobvarag‘idan mazkur shartnoma shartlari doirasida foydalanish;

3.1.2. Bank hisobvarag‘idan foydalanish uchun kod yoki sms-kodni hech kimga ma’lum qilmaslik, agar Mijoz kod yoki sms-kodni uchinchi shaxs(lar)ga bildirgan bo‘lsa, ushbu hisobvaraq orqali amalga oshirilgan barcha operatsiyalar, shu jumladan to‘lovlar uchun Mijoz o‘zi javobgar;

3.1.3. Mazkur shartnoma asosidan bankdan olingan mablag‘larni grafikda belgilangan muddatlarda qaytarish;

3.1.4. Bank hisobvarag‘ini ochish uchun bank tomonidan so‘ralgan barcha ma’lumotlarni onlayn tarzda taqdim etish.

3.1.5. Mijoz o‘zining ihtiyyori bilan yoki boshqa sabablarga ko‘ra yangi plastik karta ochganda va oylik maosh va pul mablag‘lari aynan o‘sha plastik kartaga tushganda, ushbu plastik karta haqida ma’lumot berishi kerak.

**3.2. Bankning majburiyatları:**

3.2.1. Mijoz tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida skoring o‘tkazib, bank hisobvarag‘idan foydalanish uchun onlayn tarzda limitni belgilash;

3.2.2. Mazkur shartnoma asosida, Bank tomonidan so‘ralgan barcha ma’lumotlar onlayn tarzda taqdim etilgan va limit belgilangandan so‘ng, Mijoz uchun onlayn tarzda Bank hisobvarag‘ini ochish;

3.2.3. Mijozga mahsulot (xizmat)ni muddatli to‘lov asosida xarid qilish uchun Bank hisobvarag‘i orqali qarz ajratish.

**4. Tomonlarning huquqlari**

#### **4.1. Mijozning huquqlari:**

- 4.1.1. Bank hisobvarag‘iga limit doirasida tushirilgan mablag‘larga mahsulotni (xizmatni) xarid qilish; Bank hisobvarag‘i(dagi mablag‘lar)dan mahsulotni (xizmatni) xarid qilish uchun belgilangan limit doirasida foydalanish;
- 4.1.2. Bankdan mazkur shartnoma shartlarini bajarilishini talab qilish.

#### **4.2. Bank huquqlari:**

- Mijozdan mazkur shartnoma asosida mahsulotni (xizmatni) xarid qilish uchun Bankdan intend.uz dasturi orqali olingan qarzni grafikda belgilangan muddatlarda qaytarilishini talab qilish;
- 4.2.2. Mijoz Bank hisobvarag‘idan foydalangan mablag‘ni qaytarmayotgan taqdirda, to‘lov mexanizmlarni (elektron to‘lov tizimlari) qo‘llagan holda mijozning mavjud va keyinchalik yangi olingan bank kartalaridan undirish va (yoki) boshqa qonunchilikda belgilangan tartibda mablag‘lar qaytarilishiga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish.
- 4.2.3. Banklar mijozning yangi olingan yoki keyinchalik aniqlangan boshqa plastik kartalaridan pul yechish uchun unga sms xabarnoma yuboradi. Ammo ba‘zi muammolar tufayli mijozga sms yetib bormasligi mumkin (mobil aloqa operatorlarida texnik nosozliklari kuzatilishi tufayli, mijozga tegishli raqamni hisobida pul yetarli bo‘lmasligi yoki mijoz xizmat doirasidan tashqarida bo‘lishi mumkin). Bunday hollarda qarzdorlik avtomatik tarzda yechib olinadi.
- 4.2.4. Mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida skoring o‘tkazib, belgilangan limit asosida Bank hisobvarag‘iga mablag‘ ajratish yoki rad etish.
- 4.2.5. Mijoz tomonidan mazkur shartnoma shartlariga rioya etilmagan taqdirda, Bank hisobvarag‘idan foydalanan huquqini to‘xtatib qo‘yish.
- 4.2.6. Mijoz tomonidan qarzdorlik barcha mexanizmlarni qo‘llagan taqdirda ham qoplanmasa, qarzdorlik sug‘urta tomonidan qoplanadi va fuqarolik kodeksining 957- moddasiga asosan qarz beruvchining barcha huquqlari sug‘urta tashkilotiga o‘tadi. Sug‘urta tashkiloti ham barcha to‘lov tizimlarini qo‘llagan holda mijozning yangi olingan va keyinchalik aniqlan plastik kartalaridan pul mablag‘larini akseptsiz yechib olishi huquqiga ega.

### **5. Tomonlarning javobgarligi**

- 5.1. Mijoz mazkur shartnoma shartlarini buzgan taqdirda, jarima sanksiyalardan tashqari bankka yetkazilgan zararni to‘liq to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi va to‘laydi.
- 5.2. Mijoz Bank hisobvarag‘ini ochish uchun taqdim etgan ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun qonun hujjatlari asosida javobgar hisoblanadi.
- 5.3. Mijoz Bank hisobvarag‘iga doir kod yoki sms-kodlarni uchinchi shaxsga ma'lum qilgan (bergan)ligi sababli yuzaga kelgan holat uchun javobgardir.
- 5.4. Mazkur shartnoma nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi amaldagi qonunchilikka muvofiq tartibga solinadi.

### **6. Shartnomaning amal qilish muddati va bekor qilish tartibi**

- 6.1. Mazkur shartnoma Mijoz tomonidan elektron tasdiqlangan kundan boshlab 3 (uch) yil muddatga tuziladi. Uch yildan so‘ng shartnomani bekor qilish bo‘yicha Mijoz tomonidan yozma murojaat bo‘lmasa yoki shartnoma shartlari bo‘yicha tomonlarning yozma e’tirozi bo‘lmasa, shartnomaning amal qilish muddati (har bir) keyingi kalendor‘ yiliga uzaytiriladi.
- 6.2. Ommaviy oferta (shartnoma) bekor qilingan taqdirda, bank Bank hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyani to‘xtatadi.

### **7. Maxfiylik**

- 7.1. Mazkur shartnomani tuzish va bajarish vaqtida tomonlar bir-biridan olgan barcha ma'lumotlar (Mijozning shaxsiy ma'lumotlari, Bankning tijorat siri) maxfiy axborotlar deb tan olinadi.
- 7.2. Tomonlar mazkur shartnoma doirasida bir-biriga ma'lum bo‘lgan boshqa tomonning shaxsiy yoki tijorat siri hisoblangan ma'lumotlar ularni taqdim etgan tomonning yozma roziligidisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.
- 7.3. Mazkur shartnomaning 7.2.-bandida ko‘zda tutilgan talab shartnomaning amal qilish muddatiga hamda shartnoma muddati tugagan vaqtidan boshlab 3 yil mobaynida amal qiladi.
- 7.4. Ushbu talablarni buzgan tomon buning oqibatida ikkinchi tomonga yetkazilgan barcha zararni to‘liq xajmda qoplaydi. Shartnoma shartlari mijoz tomonidan bajarilmagan holda Bank uchinchi tomonga zararni undirish va qoplab berish uchun subrogatsiya va regress huquqini berishi mumkin.

### **8. Fors-major**

- 8.1. Fors-major holatlari – bu tomonlarning irodasi, hoxishi va faoliyatlariga bohilik bo‘lмаган tabiat hodisalari (zilzila, ko‘chki, bo‘ron, qurg‘oqchilik, epidemiya va boshqalar), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko‘zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) xalqaro, banklararo va bankning elektron to‘lov hamda ta’midot tizimidagi nosozlik, bankning dasturiy ta’midot tizimiga qilingan tahdid (uchinchi shaxslar tarafidan qilingan hujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga o‘z zimmasiga

olgan shartnomaviy majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlar.

8.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtida tomonlar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo‘yicha o‘zaro majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgar bo‘lmaydi.

8.3. Yuzaga kelgan fors-major holatlari haqida hamda ushbu holatlar yakunlanganligi haqida tomon ushbu holatlar yuzaga kelgan yoki bartaraf etilgan vaqtdan boshlab, 7 (etti) bank kuni ichida bu haqda ikkinchi tomonni yozma yoki elektron ravishda xabardor qilishi lozim.

8.4. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi g‘aqidagi xabarnomalar tomonlar tarafidan bir-biriga mavjud bo‘lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin (SMS va MMS xabarları bundan mustasno).

8.5. Fors-major holatlari 30 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda tomonlar ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga haqli bo‘ladi.

#### **9. Nizolarning hal etilishi**

9.1. Tomonlar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo‘li bilan hal etadilar.

9.2. Huquqi buzilgan tomondan yuborilgan talabnama yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi tomon 10 (o‘n) ish kuni muddatda javob berishi lozim.

9.3. Talabnama yoki ogohlantirish xati tomonga shaxsan topshirish, pochta aloqa xizmati orqali buyurtma xat bilan yuborish yo‘li bilan amalgalashuvda oshiriladi.

9.4. Kelishuv yo‘li bilan hal etilmagan nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

**XAB “TRASTBANK”  
ONLAYN-QARZ BO‘YICHA  
ELEKTRON OFERTA**

**1-§. Elektron oferta predmeti**

1. Mazkur Elektron ofertaga quyidagi tushunchalar ishlataladi:

**“ITRUST SOLUTIONS CO” ma’suliyati cheklangan jamiyati** (keyingi o‘rinlarda – hamkor tashkilot) – o‘zining va/yoki hamkorining savdo shaxobchalaridan tovarni onlayn-qarzga sotish yuzasidan Bank bilan hamkorlik qilayotgan yuridik shaxs;

**inTend.uz tizimi** – Bank axborot resurslariga integratsiyalangan maxsus dasturiy mahsulot bo‘lib, u Qarzdor/mijoz tomonidan hamkor tashkilot va/yoki uning hamkorining savdo shahobchalaridan tovarni bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olishga xizmat qiladi;

**Onlayn-qarz** – “inTend.uz” orqali hamkor tashkilotning dasturiy ta’mindan foydalanish uchun haqni va/yoki uning hamkorining savdo shahobchalaridan xarid qilingan Tovar uchun bo‘lib to‘lash sharti bilan muddatlik, qaytarishlik va ta’minlanganlik asosida Bank tomonidan Qarzdorga/mijozga ajratilgan foizsiz va penyasiz pul mablag‘lari;

**Qarzdor/mijoz** – onlayn-qarzga hamkor tashkilot va/yoki uning hamkorining savdo shahobchalaridan tovar sotib oluvchi, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda raqamli identifikatsiyadan (raqamli autentifikatsiyadan) o‘tgan, bank kartasiga egalik qiluvchi O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxs;

**Vositachilik haqi** – qarzdorga/mijozga ajratilgan onlayn-qarz uchun hamkor tashkilotdan undiriladigan bank daromadi, u hamkor tashkilotning filialda ochilgan hisobvarag‘idan har bir onlayn-qarzning elektron ofertasi bo‘yicha akseptsiz undiriladi (echib olinadi);

**Tovar** – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq chakana savdosi (ko’rsatilishi) taqilganmagan mahalliy yoki import mahsulotlar (xizmatlar, shu jumladan tibbiy);

**Qarz beruvchilar** – tijorat banki, mikrokredit tashkiloti, lombard, sug‘urta tashkiloti, tovar shaklida iste’mol krediti beruvchilar, qarzdorga/mijozga o‘zaro bitim asosida qarz bergen shaxslar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa kredit tashkilotlari;

**Qarz yuki ko’rsatkichi** – Qarzdorning/mijozning krediti va boshqa majburiyatlari bo‘yicha o‘rtacha oylik to‘lov miqdorining uning o‘rtacha oylik daromadi miqdoriga bo‘lgan nisbati;

**O‘rtacha oylik to‘lov miqdori** – Qarzdor/mijoz tomonidan barcha qarz beruvchilar bilan tuzilgan va tuzilishi mo‘ljallanayotgan bitimlari, shuningdek qarzdo/mijoz kafil va/yoki birgalikda qarzdor sifatida ishtirok etadigan bitimlari bo‘yicha oylik to‘lovlarining o‘rtacha arifmetik qiymati;

**O‘rtacha oylik daromad miqdori** – Qarzdorning/mijozning bank kartasi orqali olgan daromadining o‘rtacha arifmetik qiymati.

**Skoring** – “inTend.uz” tomonidan elektron axborot resurslari bazalaridan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olingan ma'lumotlarga asoslangan holda Qarzdorning/mijozning to‘lovga layoqatliliginini aniqlash dasturi bo‘lib, ushbu dastur hamkor tashkilot tomonidan ijara shartnomasi asosida Bankka foydalanish uchun taqdim etiladi;

**Shaxsni tasdiqlovchi hujjat** – O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti yoki ID kartasi.

2. Elektron oferta shartnomasi Qarzdor/mijoz tomonidan akseptlangandan so‘ng, Bankda Qarzdor/mijoz nomiga onlayn-qarz hisob raqami ochiladi va Qarzdor/mijozga ajratilayotgan onlayn-qarz summasi ushbu hisob raqamdan Hamkorning savdo shahobchasingin hisob varag‘iga Tovar qiymatiga teng summasi hamda hamkor tashkilotning hisob varag‘iga dasturiy ta’mindan foydalanganlik uchun haq summasi o‘tkaziladi.

3. Elektron ofertaga asosan Bank tomonidan o‘tkazilgan pul mablag‘i Qarzdorga/mijozga onlayn-qarz sifatida rasmiylashtiriladi.

**2-§. Onlayn-qarz ofertasi shartlari**

4. Onlayn-qarz 12 (o‘n ikki) oy muddatgacha ajratiladi.
5. Onlayn-qarz limitining maksimal va minimal miqdorlarini Bank mustaqil belgilaydi.
6. Onlayn-qarz ta’minti sifatida onlayn-qarzning qaytarmaslik tavakkalchiligi bo‘yicha elektron sug‘urta polisi rasmiylashtiriladi. Sug‘urtani rasmiylashtirish xarajati Bank hisobidan amalgga oshiriladi.
7. Bank onlayn-qarz ajratilish yuzasidan hududiy jihatdan cheklov belgilashi mumkin.

8. Onlayn-qarz Qarzdorga/mijozga skoring asosida ajratiladi.
9. Skoringni amalga oshirish jarayonida qarzdorga/mijozga onlayn-qarz ajratilmasligi Bank tomonidan belgilanadi.
10. Qarzdor/mijoz onlayn-qarzning tasdiqlangan limitidan qancha muddat ichida foydalanishi mumkinligi haqidagi ma'lumot foydalanuvchining "Shaxsiy kabineti"da aks ettiriladi. Tasdiqlangan limitning amal qilish muddati limit tasdiqlanganligi to'g'risida SMS-xabarnoma yuborilgan vaqtan hisoblanadi.
11. Tasdiqlangan limit foydalanuvchining "Shaxsiy kabineti"da aks ettirilgan muddat ichida foydalanilmasa, ushbu limit o'z kuchini yo'qotadi va Bank qarzdorni/mijozni qayta skoringdan o'tkazishiga haqli.
12. Foydalanilgan onlayn-qarz uchun Qarzdordan/mijozdan foiz shaklida to'lov undirilmaydi.
13. Onlayn-qarz qarzdor/mijoz tomonidan onlayn-qarz qaytarish jadvaliga muvofiq qaytariladi.

### **3-§. Tomonlarning huquq va majburiyatları**

#### **14. Bankning huquqlari:**

14.1. Onlayn-qarz bo'yicha to'lov muddati kelganda, qarzdorlikni qarzdorning/mijozning **barcha bank hisob varaqalaridan va barcha bank kartalaridan (shu jumladan kelgusida yangi ochiladiganlardan ham)** barcha to'lov tizimlarini foydalangan holda **AKSEPTSIZ** undirish;

14.2. Onlayn-qarz belgilangan muddatda qaytarilmaganda (qarz summasini qaytarmaslik yoki belgilangan muddatda qarzdorlikni so'ndirmaslik), uni qaytarish uchun undiruvni barcha to'lov tizimlarini qo'llagan holda qarzdorning/mijozning nomiga ochilgan barcha banklaridagi hisobvaraqlari (shu jumladan, 22618... raqami bilan boshlanadigan barcha hisobvaraqlar) va keyinchalik aniqlangan yoki yangi ochilgan barcha bank kartalaridan akseptsiz yechish bo'yicha ko'rish;

14.3. Banklar (shu jumladan, barcha to'lov tizimlaridan foydalangan holda) qarzdor/mijozning barcha (jumladan, yangi ochilgan yoki keyinchalik aniqlangan) hisob varqalari va barcha (jumladan, yangi ochilgan yoki keyinchalik aniqlangan) bank kartalaridan pul yechayotganidan yuborilayotgan inTend.uzdan ro'yxatdan o'tayotganda biriktirgan mobil raqamiga sms-xabarnomasi ba'zi muammolar (mobil aloqa operatorlarida texnik nosozliklarni paydo bo'lishi, qarzdorning/mijozning tegishli raqami hisobida pul yetarli bo'lmasligi, mijoz xizmat doirasidan tashqarida bo'lishi, sms serverlari yuqori darajada yuklangaligi va qayta ishslash tizimi sekinlashishi va x.k.) tufayli qarzbdorning/mijozning mobil raqamiga yetib borilmasa, qarzdorlik akseptsiz tarzda yechilib boriladi.

14.4. Onlayn-qarzni to'lash muddati buzilganda nizoni hal qilish yuzasidan talabnomani Qarzdorga/mijozga ma'lum qilish. To'lanmagan taqdirda qarzdorlik sug'urta tomonidan qoplanadi va "Fuqarolik kodeksi"ning 957-moddasiga asosan onlayn-qarzni undirish huquqini sug'urta tashkilotiga o'tkazish.

Bunda, ushbu qarzdorlikni qoplagan sug'urta tashkiloti barcha to'lov tizimlarini qo'llagan holda qarzdorning/mijozning nomiga ochilgan barcha banklaridagi hisobvaraqlari (shu jumladan, 22618... raqami bilan boshlanadigan barcha hisobvaraqlar) va keyinchalik aniqlangan yoki yangi ochilgan barcha bank kartalaridan akseptsiz yechishga haqli.

Sug'urta tashkiloti barcha to'lov tizimlarini foydalanganda qarzdor/mijozning barcha (jumladan, yangi ochilgan yoki keyinchalik aniqlangan) hisob varqalari va barcha (jumladan, yangi ochilgan yoki keyinchalik aniqlangan) bank kartalaridan pul yechayotganidan yuborilayotgan inTend.uzdan ro'yxatdan o'tayotganda biriktirgan mobil raqamiga sms-xabarnomasi ba'zi muammolar (mobil aloqa operatorlarida texnik nosozliklarni paydo bo'lishi, qarzdorning/mijozning tegishli raqami hisobida pul yetarli bo'lmasligi, mijoz xizmat doirasidan tashqarida bo'lishi, sms serverlari yuqori darajada yuklangaligi va qayta ishslash tizimi sekinlashishi va x.k.) tufayli qarzbdorning/mijozning mobil raqamiga yetib borilmasa, qarzdorlik akseptsiz tarzda yechilib boriladi.

14.5. Sug'urta tashkiloti qarzdorlikni qoplaganda, sug'urta tashkiloti qarzdor/mijozning barcha shaxsiy ma'lumotlardan foydalanishiga va qayta ishlanishiga haqli.

#### **15. Bankning majburiyatları:**

15.1. Onlayn-qarzni ushbu Elektron ofertada belgilangan shartlarda berish;

15.2. Onlayn-qarzni muddatidan oldin undirish sabablari haqida Qarzdorni/mijozni xabardor etish;

15.3. Qarzdordan/mijozdan onlayn-qarzning joriy to'lovi uchun onlayn-qarzni qaytarish jadvalida belgilanganga nisbatan ko'p mablag' kelib tushsa, u holda kelib tushgan mablag'ning ortiqcha qismini keyingi oy bo'yicha qarzdorlikni so'ndirishga yo'naltirish;

15.4. Onlayn-qarz bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda Qarzdor/mijoz zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida ushbu qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 kalendar kuni davomida har qanday aloqa bog'lash usulidan, shu jumladan elektron aloqa vositasidan foydalanib, Qarzdorga/mijozga muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida onlayn-qarzni

qaytarish jadvalini ilova qilgan holda xabar berish;

15.5. Qarzdorni/mijozni ushbu Elektron oferta bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlikni qaytarish majburiyati bajarilmaganligi holati, muddati, qiymati, tarkibi va oqibatlari haqida xabardor qilish;

15.6. Qarzdordan/mijozdan muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelishi sabablari haqida so'rash;

15.7. Qarzdor/mijoz tomonidan ushbu Elektron oferta bo'yicha onlayn-qarzni qaytarish muddati buzilganda nizoni hal qilish yuzasidan o'z talabnomasini Qarzdorga/mijozga yetkazish (ushbu talabnomada u tuzilgan sanadagi Qarzdorning/mijozning joriy qarzi miqdori va tarkibi, qarzni to'lash usullari, talabnomada ko'rsatilgan muddatgacha Qarzdor/mijoz o'z majburiyatlarini bajarmasligi oqibatlari va nizoni hal qilish usullari qayd etiladi);

15.8. Qarzdor/mijoz tomonidan onlayn-qarz bo'yicha qarzdorlik to'liq to'langanidan so'ng, qarzdorning/mijozning shaxsiy kabinetida onlayn-qarz bo'yicha qarzdorlik to'liq so'ndirilganligi to'g'risida ma'lumotni avtomat tarzda shakllantirish.

16. Qarzdorning/mijozning huquqlari:

16.1. Ushbu Elektron ofertani akseptlash bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish;

16.2. Onlayn-qarzning o'z vaqtida ajratilishini talab qilish;

16.3. Onlayn-qarzni istalgan vaqtida muddatidan oldin to'liq to'lagan holda ushbu Elektron ofertani muddatidan oldin bekor qilish.

17. Qarzdorning/mijozning majburiyatları:

17.1. Onlayn-qarzni o'z vaqtida qaytarish;

17.2. Ish haqi loyihasi asosida bank kartasi berilgan korxonadan (tashkilotdan, muassasadan) ishdan bo'shayotganda onlayn-qarzni muddatidan oldin qaytarish.

#### **4-§. Tomonlarning javobgarligi**

18. Tomonlarning ushbu Elektron oferta majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, ularga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalarda belgilangan javobgarlik choralar qo'llaniladi.

18.1. Agar mijozning/qarzdorning qarzdorlik summasi uchinchi tomondan Bankka qoplanib berilsa, u holda:

-qarzdorning/mijozning ushbu ofertada ko'rsatilgan Bankka nisbatan majburiyatları qarzdor/mijozning uchinchi tomonga ham nisbatan majburiyatları yuzaga keladi;

-Bankning qarzdor/mijozga nisbatan ofertada ko'rsatilgan huquqlari uchinchi tomonda ham qarzdor/mijozga nisbatan ushbu huquqlar yuzaga keladi.

#### **5-§. Fors-major holatlar**

19. Tomonlar fors-major holatlar amal qilgan davrda Elektron oferta bo'yicha o'z majburiyatlarining qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun javob bermaydilar.

Fors-major holatlarga quyidagilar kiradi: tabiiy hodisalar (zilzila, ko'chki, dovul, qurg'oqchilik va boshqa tabiiy hodisalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (iqtisodiy sanksiyalar, harbiy harakatlar, ish tashlashlar, qamallar, davlat tashkilotlarining hamda davlat tashkilotlari o'rtasidagi chekllovchi va taqiqlovchi choralar, Hukumat qarorlari va boshqalar) oqibatida kelib chiqqan favqulodda, joriy sharoitda bartaraf etib bo'lmaydigan va oldindan kutilmagan vaziyatlar, agar ushbu vaziyatlar Elektron ofertani bajarishga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa.

Fors-major holatlar yuzaga kelganda va to'xtaganda tomonlar bir-birini darhol xabardor qiladilar.

Xabarnoma tomonlarda mavjud bo'lgan barcha aloqa vositalari orqali yuboriladi.

Fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda majburiyatlarini bajarish muddatini tomonlar fors-major holatlar amal qilgan davrga mutanosib tarzda kechiktiradi.

#### **6-§. Nizolarni hal qilish**

20. Bank va Qarzdor/mijoz, taraflarning o'zaro roziligiga ko'ra, qonun hujjalarda belgilangan nizoni hal qilish usullarini qo'llashga, shu jumladan muzokara o'tkazish orqali hal qilishga haqli hisoblanadi.

21. Qarzdor/mijoz nizoni hal qilish yuzasidan ushbu Elektron oferta 15.7.-bandining qayd etilgan talabnomada ko'rsatilgan talablar bajarilmaganligi oqibatida qarzdorlik sug'urta tashkiloti tomonidan qoplab berilganda onlayn-qarzni undirish huquqini sug'urta tashkilotiga o'tkazadi.

#### **7-§. Elektron ofertaning boshqa shartlari**

22. Qarzdor/mijoz Elektron ofertani akseptlash bilan o'z shaxsiga doir ma'lumotlarga ishlov berishga rozilik bildirgan hisoblanadi.

23. Bank Qarzdor/mijoz uchun ushbu Elektron oferta bo'yicha onlayn-qarzni to'lashning masofadan turib

amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

24. Bank onlayn-qarz shartlarini, shu jumladan mazkur Elektron ofertaning amal qilish muddatini bir tomonlama o‘zgartirishga haqli emas.

25. Qarzdor/mijoz vafot etganda uning huquq va majburiyatlari O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariiga muvofiq hal etiladi.

26. Mazkur Elektron oferta u imzolangan kundan boshlab to Qarzdor/mijoz tomonidan ushbu majburiyatlari to‘liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

27. Ushbu Elektron ofertaning bekor qilinishi tomonlari u bekor qilingunga qadar bildirilgan o‘zaro da‘vosini (talabini) qondirish majburiyatidan ozod qilmaydi.

28. Mazkur Elektron ofertada ko‘zda tutilmagan holatlar yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari qo‘llaniladi.

**“inTend.uz” tizimi orqali jismoniy shaxslarga “Onlayn mikroqarz” taqdim qilish  
to‘g‘risidagi  
OMMAVIY OFERTA (Shartnoma)**

Ushbu bilan “Orient Finans” XATB (keyingi o‘rinlarda “Bank”) barcha muomalaga layoqatli, to‘lov qobiliyatiga ega “**inTend.uz**” tizimi foydalanuvchisi bo‘lgan jismoniy shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367, 369, 370 – moddalariga asosan hisobraqam ochish va “**inTend.uz**” tizimi orqali “Onlayn mikroqarz” taqdim qilish to‘g‘risidagi ommaviy ofertasiga qo‘silish bo‘yicha (keyingi o‘rinlarda – Ommaviy oferta / Shartnoma) rasmiy taklifi hisoblanadi.

Foydalanuvchi tomonidan ushbu Ommaviy ofertada nazarda tutilgan Ommaviy ofertani qabul qilish bilan bog‘liq harakatlarni amalgaga oshirilishi, u tomonidan quyida keltirib o‘tilgan shartlarni so‘zsiz va shartlarsiz qabul qilinishini (Ommaviy ofertaning akseptlanishini) bildiradi.

Ommaviy oferta qabul qilingan (akseptlangan) vaqtidan boshlab Shartnoma tuzilgan deb hisoblanadi.

Ushbu Ommaviy ofertada nazarda tutilmagan barcha masalalarda Taraflar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ish yuritishadi.

Ushbu Ommaviy ofertani akseptlash “**inTend.uz**” tizimi orqali ma’lum jarayonlarni bajarish orqali amalgaga oshiriladi.

**Ommaviy ofertani akseptlash oraqali jismoniy shaxs quyidagilarga o‘z roziliginibildiradi:**

- Ommaviy oferta shartnomasida qayd etib o‘tilgan shartlar asosida shartnomaga qo‘silish;
- Ushbu Ommaviy oferta shartlarini shartlarsiz va to‘liqligicha, qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritmagan holda qabul qilish;
- Shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berishga;
- Bank tomonida Onlayn mikroqarz taqdim qilish uchun kerak bo‘lgan maxsus hisobraqamlarni ochishga;
- Qarz oluvchi tomonidan har oylik to‘lovlar o‘z vaqtida amalgaga oshirilmaganda, uning nomiga ochilgan O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha hisobraqamlaridan akseptsiz ravishda pul mablag‘lari yechiladi. Akseptsiz pul mablag‘larini yechib olish Bank tomonidan, shuningdek “Onlayn mikroqarz” qaytmasligi bo‘yicha sug‘urtalagan tashkilot “KAPITAL SUG‘URTA” AJ tomonidan amalgaga oshirilishi mumkin;
- Onlayn mikroqarz taqdim qilish maqsadida Bank tomonidan boshqa tashkilotlardan ma’lumotlarni olish;
- Kelishmovchiliklar va bahsli hodisalar yuzaga kelganda Bank tomonidan Ommaviy oferta shartnomasi shartlarini qo‘llashga;
- Ommaviy oferta matnni asosli sabab sifatida qo‘llashga;
- Ushbu Ommaviy ofertani akseptlash orqali Qarz oluvchi u tomonimdan “**inTend.uz**” tizimi orqali kiritilgan ma’lumotlarni haqiqiyligi va amaldaligini tasdiqlaydi.
- Ommaviy ofertani akseptlanishi Jismoniy shaxs tomonidan bir marotabalik almashuvchan kodni olish va uni “**inTend.uz**” tizimiga kiritish orqali amalgaga oshiriladi.

## 1. ATAMALAR VA TA’RIFLAR

Ushbu Ommaviy oferta maqsadlari uchun quyidagi atamalar va ta’riflar qo‘llaniladi:

**1.1. Qarz oluvchi** – tasdiqlangan daromadga ega va Onlayn mikroqarz mahsuloti shartlari bo‘yicha barcha talablarga javob beradigan jismoniy shaxs (O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi / rezidenti).

**1.2. Foydalanuvchi** – “**inTend.uz**” tizimida identifikatsiyadan o‘tgan va ushbu tizimda shaxsiy kabinetiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs.

**1.3. To‘lovlar jadvali** – Qarz oluvchi tomonidan Onlayn mikroqarzn ni qismlarga bo‘lib qaytarishni aks ettiradigan vaqtinchalik jadval.

**1.4. Ishonchli qurilma** – “**inTend.uz**” tizimiga kirish va ushbu tizim orqali Onlayn mikroqarz olish uchun kerakli hujjatlar va axborotni yuborish, shuningdek Ommaviy ofertani akseptlash maqsadida qo‘llaniladigan Qarz oluvchining qurilmasi.

**1.5. Qarz oluvchini identifikatsiya qilish** – “**inTend.uz**” tizimidan foydalanish orqali MyID tizimida Qarz oluvchining shaxsga doir ma’lumotlarini aktualligi, to‘g‘riligi va to‘liqligini tekshirish va tasdiqlash.

**1.6. Onlayn mikroqarz berilgan sana** - Bank tomonidan Qarz oluvchining nomidan Mahsulot uchun Sotuvchi hamda dasturdan foydalanganlik uchun “ITRUST SOLUTIONS CO” MChJ hisob raqamlariga pul mablag’lari o’tkazib berilgan sana.

**1.7. Onlayn mikroqarzning individual shartlari** - “inTend.uz” tizimi orqali Individual shartlarni va mazkur Ommaviy ofertani aktseptlash orqali Qarz oluvchi tomonidan Onlayn mikroqarz olishda aks ettiriladigan va tasdiqlangan Bank tomonidan Qarz oluvchi uchun hisoblab chiqilgan ehtimoliy moliyalash miqdori doirasida Qarz oluvchiga Onlayn mikroqarz taqdim qilishning muayyan shartlari (miqdori, muddati va h.k.).

**1.8. Kredit arizasi** - “inTend.uz” tizimi orqali Qarz oluvchi tomonidan (potensial Qarz oluvchi tomonidan) Bankka yuboriladigan va mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilgan shartlarda Qarz oluvchiga Onlayn mikroqarz taqdim qilish ehtimolini baholash maqsadida umumiy axborotni o’z ichiga olgan hujjat.

**1.9. Onlayn mikroqarz** – Qarz oluvchi tomonidan “inTend.uz” Onlayn mikroqarz loyihasi doirasida xarid qilgan Mahsulotining to’lov majburiyatini bajarish (Qarz oluvchi majburiyatini ta’minalash) maqsadida Bank tomonidan dasturdan foydalanganlik uchun “ITRUST SOLUTIONS CO” MChJ hamda Mahsulot uchun Sotuvchi hisobraqamlariga o’tkazib beriladigan pul mablag’lari.

**1.10. Onlayn mikroqarz bo‘yicha ta’minot** - Onlayn mikroqarz summasining 125% dan kam bo‘lмаган miqdorda kredit so‘ndirilmasligi xavfini sug‘urtalash polisi.

**1.11. To’lov majburiyatları** - Qarz oluvchining mazkur Shartnomada bo‘yicha qarzini, Shartnomada belgilangan summada va muddatlarda sundirish majburiyatları.

**1.12. Sotuvchi** – Onlayn mikroqarz shartlari asosida Mahsulot taqdim qiladigan yakka tartibdagi tadbirkor, yuridik shaxs.

**1.13. “inTend.uz” tizimi** – “ITRUST SOLUTIONS CO” MChJga tegishli bo‘lgan Foydalanuvchi uchun Mahsulotlarni (Xizmatlarni) bo‘lib to‘lash shartlari asosida xarid qilish imkonini taqdim qiluvchi dastur.

**1.14. Sug‘urtalovchi** – ushbu Ommaviy oferta shartlarining bajarilishi bilan bog‘liq bo‘lgan xavfni sug‘urta qilish uchun Bank tomonidan tanlangan “KAPITAL SUG’URTA” AJ sug‘urta kompaniyasi.

**1.15. Maxsus hisobraqam** – Qarz oluvchi tomonidan so‘ralgan pul mablag’larini taqdim qilish maqsadida Bankda Qarz oluvchi nomiga ochiladigan kredit hisobraqam.

**1.16. Mahsulotlar** - O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalariiga muvofiq chakana savdosi (ko’rsatilishi) ta’qilganmagan mahalliy yoki import mahsulotlar (xizmatlar, shu jumladan tibbiy).

**1.17. OTP (one time password)** – Bank tomonidan ishlab chiqarilgan va SMS-xabar shaklida Foydalanuvchining “inTend.uz” tizimida ro‘yxatdan o’tgan mobil telefon raqami va/yoki elektron pochta manziliga yuboriladigan maxsus bir martalik o‘zgaruvchan kod. Foydalanuvchining bir martalik o‘zgaruvchan kodni qo‘llashi, Foydalanuvchi uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq qo‘lda yozilgan imzolardan foydalanishga o‘xhash huquqiy oqibatlarini yaratishi natijasida amalga oshirgan barcha harakatlari muhokama qilinmaydi va Foydalanuvchi tomonidan shaxsan sodir etilgan deb e’tirof etiladi.

## 2. SHARTNOMA PREDMETI

**2.1.** Bank Qarz oluvchi Kredit arizasida so‘ralgan miqdorda, biroq Bank tomonidan Qarz oluvchi uchun hisoblab chiqilgan ehtimoliy moliyalash miqdoridan ko‘p bo‘lмаган miqdorda Onlayn mikroqarz bo‘yicha pul mablag’larini Qarz oluvchining maxsus hisobraqamiga keyinchalik ushbu hisobraqamdan:

- dasturdan foydalanganlik uchun “ITRUST SOLUTIONS CO” MChJ;
- Mahsulot uchun Sotuvchi hisobraqamlariga o’tkazib beriladi.

Qarz oluvchi esa Onlayn mikroqarzni Ommaviy oferta shartlari va Onlayn mikroqarz individual shartlari asosida qaytarishni o‘z zimmasiga oladi.

**2.2.** So‘ndirish tartibi to’lov jadvali bo‘yicha Qarz oluvchi tomonidan har oylik to‘lovlarni to‘lash orqali amalga oshiriladi.

**2.3.** Onlayn mikroqarzning ta’minati “KAPITAL SUG’URTA” AJning sug‘urta polisi hisoblanadi.

## 3. ONLAYN MIKROQARZNI TAQDIM QILISH VA TO’LOV TARTIBI

**3.1.** Bank tomonidan Onlayn mikroqarz taqdim qilish tasdiqlangandan so‘ng pul mablag’lari Qarz oluvchi maxsus hisobraqamiga o’tkaziladi.

**3.2.** Qarz oluvchi tomonidan Mahsulot qabul qilib olinganligi tasdiqlangandan so‘ng, Qarz oluvchi hisobraqamidagi pul mablag’lari dasturdan foydalanganlik uchun “ITRUST SOLUTIONS CO”

MChJ hamda Mahsulot uchun Sotuvchi hisobraqamlariga o'tkazib beriladi.

**3.3.** Dasturdan foydalanganlik uchun "ITRUST SOLUTIONS CO" MChJ hamda Mahsulot uchun Sotuvchi hisobraqamlariga pul mablag'lari o'tkazib berilgan sana Onlayn mikroqarz taqdim qilingan sana deb hisoblanadi.

**3.4.** Agar har qanday to'lovni amalga oshirish kuni bank ish kuniga to'g'ri kelmasa, to'lov keyingi bank ish kuniga o'tkaziladi.

**3.5.** Qarz oluvchi hisobraqamlaridan pul mablag'larini avtomatik yechib olish xizmati Qarz oluvchi tomonidan Onlayn mikroqarz olingan vaqt yoqiladi, Qarz oluvchi ushbu xizmatdan foydalanish o'z xoxish irodasiga qarshilik qilmasligini tasdiqlaydi.

**3.6.** Qarz oluvchi Bank va Sug'urtalovchi tomonidan O'zbekiston Respublikasining barcha banklarida Qarz oluvchi nomiga ochilgan hisobraqamlardan Onlayn mikroqarz to'lovlar bo'yicha yechib olinishiga o'z roziligidagi qarshilik qilmasligini beradi.

**3.7.** Ushbu shartnomaga bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish Bank tomonidan avtomatik ravishda quyidagi ketma-ketlikdan amalga oshiriladi. Onlayn mikroqarzni so'ndirish Bank tomonidan Qarz oluvchining hisobraqamlaridan avtomatik tarzda pul mablag'larini yechish orqali amalga oshiriladi.

**3.8.** Qarz oluvchi Onlayn mikroqarzni to'liq yoki bir qismini muddatidan avval so'ndirish huquqiga ega. Onlayn mikroqarzning bir qismi muddatidan avval so'ndirilgan taqdirda Onlayn mikroqarzni so'ndirish muddati mutanosib davrga qisqartiriladi.

#### **4. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI**

##### **Bank quyidagi huquqlarga ega:**

**4.1.** Bank quyidagi hollarda Qarz oluvchidan onlayn mikroqarzni muddatidan oldin so'ndirishni talab qilishga haqli:

**4.1.1.** Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnomaga, Individual shartlar va Onlayn mikroqarz olish uchun yuborilgan Ariza bo'yicha qabul qilingan majburiyatlar buzilishi, bajarilmasligi va/yoki lozim darajada bajarilmaganligida;

**4.1.2.** Ushbu Shartnomaga shartlari va Individual shartlardan kelib chiqadigan Onlayn mikroqarz bo'yicha to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmaganda;

**4.1.3.** O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjalarda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

**4.2.** Agar quyida keltirib o'tilgan holatlar yuz bersa va davom etsa, Qarz oluvchidan Onlayn mikroqarz to'lovlarini va boshqa to'lovlarini, zudlik bilan, muddatidan oldin to'lashni talab qilish:

**4.2.1.** Qarz oluvchi tomonidan kredit qarzdorligi bo'yicha majburiyatlarni bajarmasligi (ushbu shartnomaga bundan mustasno);

**4.2.2.** Qarz oluvchining har qanday davlat organi tomonidan mol mulkini yoki boshqa aktivlarini to'liq yoki har qanday muhim qismini musodara qilish, milliylashtirish yoki boshqa yo'l bilan ekspluatatsiya qilish, Qarz oluvchining mol-mulkini va boshqa aktivlarini saqlash yoki nazorat qilish, yoki Qarz oluvchining Onlayn mikroqarzini to'lashga to'sqinlik qiladigan har qanday harakatlarda;

**4.2.3.** Qarz oluvchi yoki unga bog'liq bo'lgan uchinchi shaxslarga nisbatan har qanday tarzda jinoiy ishlari bo'yicha yoki fuqarolik ishlari sud jarayoni yuritsa, agar bu Qarz oluvchining to'lov qobiliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa.

**4.2.4.** Bankda firibgarlikka qarshi kurashish borasida bankning ichki siyosati va tamoyillariga muvofiq ushbu shartnomaga bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanish / tasarruf etish borasida shubha tug'ilsa.

**4.3.** O'z ixtiyori bilan, o'z mablag'lari hisobidan, qarz oluvchini ogohlantirmsandan onlayn mikroqarzni to'lamaslik xavfidan sug'urta qilish.

**4.4.** Ushbu Shartnomaga nazarda tutilgan Qarz oluvchining roziligi asosida Bank va boshqa banklarda ochilgan barcha hisobvaraqlar va bank kartalaridan, shuningdek Bankda ochilgan har qanday Depozit hisobvarag'idan To'lov jadvaliga muvofiq Qarz oluvchi tomonidan kiritilishi kerak bo'lgan pul mablag'lari miqdorini avtomatik tarzda yechib oladi.

**4.5.** Ushbu shartnomaga shartlari va qarz oluvchi tomonidan ushbu shartnomaga bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi to'g'risida Kredit byurosi va Kredit Axboroti Davlat Reestriga ma'lumot berish.

**4.6.** Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotni tekshirish yoki verifikatsiya jarayonini amalga oshirish uchun Onlayn mikroqarz olish jarayonida ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali Qarz oluvchi bilan bog'lanish.

### **Bank majburiyatları:**

- 4.7.** Qarz oluvchiga Bank tomonidan tasdiqlangan miqdorda Onlayn mikroqarz taqdim etish.
- 4.8.** To'lovlardan xabardor qilish maqsadida Onlayn mikroqarz olish jarayonida ko'rsatilgan aloqa kanallaridan foydalanish.

### **Qarz oluvchining huquqlari:**

- 4.9.** Onlayn mikroqarz olish jarayonida ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali qarz miqdori va onlayn mikroqarzni to'lash shartlari to'g'risida ma'lumot olish;
- 4.10.** Istalgan vaqtida onlayn mikroqarzni, Bank tomonidan jarimalar undirmasdan, muddatidan oldin to'liq yoki qisman so'ndirish.
- 4.11.** Shartnomalardan so'ng pul mablag'larini olishdan oldingi davrda bepul tarzda mikroqarz olishni rad etish.

### **Qarz oluvchining majburiyatları:**

- 4.12.** To'lovlar jadvaliga muvofiq ushbu shartnomalardan undirish; Onlayn mikroqarzning individual shartlarida nazarda tutilgan to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish;
- 4.13.** Bankdan ushbu Shartnomalardan undirish; Onlayn mikroqarzning individual shartlariga muvofiq onlayn mikroqarzni muddatidan oldin qaytarib berish talabi olingandan keyin olingen onlayn mikroqarzni qaytarish va boshqa to'lovlarini to'lash.
- 4.14.** 3 kalendar kun davomida masofaviy aloqa kanallari orqali va/yoki to'g'ridan-to'g'ri bo'limlarga yoki bank xizmatlari ko'rsatish markazlariga tashrif buyurish orqali Qarz oluvchi tomonidan o'z majburiyatlarini bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan Onlayn mikroqarz olish vaqtida taqdim qilingan pasport va boshqa ma'lumotlarga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, shu jumladan: uyali telefon raqami, ish telefoni, ro'yxatdan o'tgan manzillari, yashash joyi, ish joyi (daromad manbai), familiyasi yoki ismi va boshqa holatlarda Bankni xabardor qiladi.

## **5. TARAFLAR JAVOBGARLIGI**

- 5.1.** Bank ushbu Shartnomalardan undirish; onlayn mikroqarz olish qaytarishni, shuningdek Qarz oluvchining ish haqi, boshqa pul mablag'larini va uning boshqa likvidli mol-mulki orqali bankka yetkazilgan barcha yo'qotishlar va zararlarni qoplashni talab qilishga haqlidir.
- 5.2.** Qarz oluvchi "inTend.uz" tizimidan foydalanish orqali olingen Onlayn mikroqarz, shuningdek Ommaviy oferta va Individual shartlar asosida ajratilgan pul mablag'lardan foydalanganlik bo'yicha Javobgarlik mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.
- 5.3.** Qarz oluvchi Shartnomalardan undirish; onlayn mikroqarz bo'yicha qarzni o'z vaqtida va to'liq qaytarilishi, shuningdek qarzni undirish bo'yicha sud xarajatlarini qoplash va Qarz oluvchi tomonidan majburiyatlarini bajarilmaganligi yoki tegishlicha bajarilmaganligi tufayli yuzaga kelgan Bankning boshqa zararlari uchun Bank oldida o'zining barcha mulki bilan javobgar hisoblanadi.

### **5.4. Bank quyidagilar uchun javobgar hisoblanmaydi:**

- 5.4.1.** "inTend.uz" tizimi orqali Onlayn mikroqarz olish vaqtida internet tarmog'iga ulanishdagi nosozliklar va bunday nosozliklar natijalari uchun.
- 5.4.2.** Onlayn mikroqarz olish maqsadida ariza topshirish uchun qo'lanilayotgan qurilmaning texnik holati uchun.
- 5.4.3.** Foydalanuvchi qurilmasining zararli dasturlar va viruslardan tegishli ravishda himoyalananmaganligi uchun.
- 5.4.4.** Taraflarning ushbu Shartnomalardan undirish; onlayn mikroqarz olish qaytarishni, shuningdek qarzni undirish bo'yicha sud xarajatlarini qoplash va Qarz oluvchi tomonidan majburiyatlarini bajarilmaganligi yoki tegishlicha bajarilmaganligi tufayli yuzaga kelgan Bankning boshqa zararlari uchun Bank oldida o'zining barcha mulki bilan javobgar hisoblanadi.

## **6. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISH**

- 6.1.** Ushbu bilan Qarz oluvchi mustaqil, o'z xohish-istagi va manfaatlari yo'lida Bankka noma'lum muddatga o'zining shaxsiy ma'lumotlaridan, Bank faoliyati uchun, Ommaviy oferta ko'rsatilgan shartlarni Bank tomonidan bajarilishi, shuningdek qonunga zid bo'lmagan boshqa maqsadlar yo'lida foydalanish va ishlov berishga cheklanmagan muddatga o'zining roziligidini beradi. Shuningdek, Qarz oluvchi ushbu Ommaviy oferta shartlari bajarish maqsadida Bank tomonidan shaxsiy ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga taqdim etilishiga o'z roziligidini beradi.

- 6.2.** Qarz oluvchining har qanday ma'lumotlari (shaxsiy va / yoki aloqa ma'lumotlari)ga ishlov berish avtomatlashtirish vositalari yordamida yoki ularsiz amalga oshiriladi, shu jumladan mazkur Ommaviy ofertaning qabul qilinishi munosabati bilan Bank taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, tushuntirish, foydalanish, tarqatish (jumladan Bankning hamkorlariga ham), egasizlantirish, cheklab qo'yish, yo'q qilish, O'zbekiston Respublikasining amaldagi

qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish kiradi.

### **6.3. Mazkur Ommaviy ofertani akseptlash orqali Qarz oluvchi quyidagilarga o‘z roziligin beradi:**

**6.3.1.** Bank tomonidan ro‘yxatga olish paytida va Bankka “**inTend.uz**” tizimi orqali taqdim etilgan boshqa hujjatlarda ko‘rsatilgan aloqa ma’lumotlardan Qarz oluvchi ushbu Ommaviy oferta doirasida xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq har qanday ma’lumotlar to‘g‘risida xabardor qilish uchun foydalanilishiga;

**6.3.2.** Bank xizmatlaridan foydalanish bilan bog‘liq reklama, tijorat va boshqa ma’lumotlarni (mobil telefon raqami, elektron pochta manzili va shaxsiy kabinet), shu jumladan bankning yangi xizmatlari va bankning qo‘shma mahsulotlari va uchinchi shaxslar haqidagi ma’lumotlarni xabarnomalar yuborish orqali qabul qilish;

**6.3.3.** Davlat soliq xizmati, ma’lumotlarga ishlov berish markazi va boshqa davlat tashkilotlaridan shaxsga doir ma’lumotlarni olish va foydalanish;

**6.3.4.** Kredit mahsulotlarini taqdim etish uchun Bank Qarz oluvchiga va/yoki kreditlash obyektiiga (zarurat bo‘lganda) taalluqli bo‘lgan barcha zarur axborotni (kredit hisoboti/kredit tarixi/axborot va boshqalar)ni kredit byurosi va boshqa tashkilotlar (muassasa, banklar)dan olish va/yoki uzatish huquqiga ega.

**6.4.** Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan shaxsiy ma’lumotlarga ishlov berish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

**6.4.1.** Qarz oluvchini verifikatsiyalash;

**6.4.2.** Bank tomonidan ushbu Ommaviy ofertaga asosan o‘z zimmasiga olingan vazifalarni lozim darajada bajarish maqsadida;

**6.4.3.** Qarz oluvchi tomonidan Ommaviy ofertaga muvofiq o‘z zimmasiga olingan vazifalarni lozim darajada bajarishi maqsadida;

**6.4.4.** Qarz oluvchi bilan aloqaga chiqish, shuningdek “**inTend.uz**” tizimidan foydalanish bilan bog‘liq xabarnoma, so‘rovnama va ma’lumotlar yo‘llanishi;

**6.4.5.** Bank tomonidan xizmat ko‘rsatilishi, shuningdek Qarz oluvchidan olingan so‘rovnama va buyurtmalarga ishlov berish, jumladan bunday so‘rovnama va buyurtmalarni Bankning kontragent/hamkorlariga keyingi ijro uchun taqdim etilishi;

**6.4.6.** Egasizlantirilgan ma’lumotlarga asosan statistik va boshqa tadqiqotlar o‘tkazish;

**6.4.7.** Bank tomonidan Hamkor/kontragentlar bilan birgalikda o‘tkazilayotgan aksiyalarda ishtirok etish takliflarini tarqatish va aksiyada ko‘zda tutilgan sovg‘a/mukofotlarni taqdim qilish;

**6.4.8.** Reklama-axborot materiallarini telefon, faksimilya, elektron pochta va boshqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalardan foydalanish orqali tarqatish;

**6.4.9.** “**inTend.uz**” tizimidan foydalangan holda noqonuniy harakatlarni amalga oshirilishini oldini olish/bartaraf qilish;

**6.4.10.** O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lmagan boshqa maqsadlar.

## **7. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR**

**7.1.** Shartnomalar bo‘yicha Taraflar o‘z majburiyatlarini bajarayotganda, affillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilarini harakatlarga ta’sir qilishi yoki ushbu shaxslarning har qanday nomaqbul imtiyozlar yoki boshqa imtiyozlarni olish uchun to‘lovlarni to‘lamaydilar, to‘lashni taklif qilmaydilar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita biron bir pul mablag‘lari yoki qiymatlarni to‘lashga yo‘l qo‘ymaydilar.

**7.2.** Shartnomalar bo‘yicha Taraflar o‘z majburiyatlarini bajarayotganda, affillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilarini amaldagi qonunchilikda pora berish-olish, shuningdek, amaldagi qonunchilik va xalqaro huquq talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar, jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishshga qarshi kurashish bo‘yicha harakatlar qilmaydilar.

**7.3.** Qarz oluvchi Bank xodimlarini har qanday tarzda rag‘batlantirishni rad etadi, jumladan pul mablag‘lari, sovg‘alar, bepul ishlarni (xizmatlarni) bajarish va boshqalar taqiqlanadi. Shu bilan birga, xodimni ma’lum bir qaramlikka olib kelishi va buning bajarilishini ta‘minlash, xodim rag‘batlantiruvchi tomon foydasiga har qanday harakatni amalga oshirishi ta‘qilanganadi.

**7.4.** Agar biron-bir tomon korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarining buzilishi sodir bo‘lgan yoki bo‘lishi mumkin deb bilsa, tegishli tomon boshqa tomonni yozma yoki og‘zaki, shu jumladan, ishonch telefoni orqali xabardor qilish majburiyatini oladi.

**7.5.** Taraflar ushbu Shartnomani tuzishda, Shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so‘ng, Shartnomalar bilan bog‘liq korrupsiyaviy harakatlar sodir qilmaslikka kelishib

olandilar.

## 8. SHAHODATLASH VA TASDIQLASH

**8.1.** Qarz oluvchi ongli ravishda va o‘z hohish istagi asosida akseptlangan Individual shartlar va Ommaviy oferta shartlari uning huquq va manfaatlari zid emasligini, shuningdek Individual shartlar va Ommaviy ofertadan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar ayon va tushunarligini ma’lum qiladi.

**8.2.** Qarz oluvchi Ommaviy ofertaning matni bilan tanishib chiqib barcha shartlarining ma’nosи va mazmuni aniq va tushunarli ekanligiga hamda ushbu Shartnomalar yozilgan tilga qarshiligi yo‘qiligini, shuningdek o‘zining huquq va manfaatlari Ommaviy oferta va Individual shartlar asosida chegaralanmayotganligini, shuningdek Ommaviy oferta va Individual shartlar huquqiy oqibatlar ma’lum va ayonligini Ommaviy ofertani akseptlashi orqali ma’lum qiladi.

**8.3.** Qarz oluvchi quyidagilarni tasdiqlab, shahodatlaydi:

**8.3.1.** Onlayn mikroqarzni rasmiylashtirish va olish maqsadida Bankka “**inTend.uz**” tizimi orqali taqdim qilinadigan/ yuklanadigan/ kiritiladigan barcha ma’lumotlar va hujjatlar taqdim qilingan/ yuklangan/ kiritilgan sanada tegishliligi, haqiqiyligi va ishonchliligin tasdiqlaydi;

**8.3.2.** Amalda bo‘lgan va shartli majburiyatlarga, shu jumladan uchinchi shaxs foydasiga berilgan kafillikka ega emas;

**8.3.3.** Bankda Onlayn mikroqarz To‘lov jadvali bo‘yicha to‘lovlar qilinishi kundan keyingi kunda Qarz oluvchining barcha hisobvaraqlaridan akseptsiz yechish huquqi vujudga kelishi to‘g‘risida ogohlantirilganligi va bu jarayonga o‘z roziligidini ma’lum qiladi.

**8.3.4.** Sug‘urtalovchi tomonidan Bankka Onlayn mikroqarz bo‘yicha To‘lov jadvaliga muvofiq to‘lov miqdori o‘tkazib berilgan sananing ertasi kunidan Sug‘urtalovchida Qarz oluvchining barcha hisobvaraqlaridan akseptsiz yechish huquqi vujudga kelishi uchun asos hisoblanadi.

**8.3.5.** Qarz oluvchi “**inTend.uz**” tizimi va Onlayn mikroqarzdan foydalanishda tijorat maqsadida foydalanmasligini ma’lum qiladi.

**8.3.6.** Qarz oluvchi Ommaviy ofertada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishga haqli, va ushbu majburiyatlar haqiqiy deb hisoblanadi.

**8.3.7.** Mahsulot qabul qilinayotgan vaqtida, yoki qabul qilingandan so‘ng “**inTend.uz**” tizimida belgilangan muddat ichida qabul qilish rad etilsa, ushbu harakat Shartnomani bekor qilish uchun asos hisoblanadi.

**8.4.** Ushbu bilan Qarz oluvchi quyidagi harakatlarni amalga oshirishga Bankka o‘zining qaytarilmas, mutloq huquq va roziligidini beradi:

**8.4.1.** Bank tomonidan Milliy kredit tarixi institutiga va/yoki Banklararo kredit byurosiga Individual shartlar va Ommaviy oferta to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim qilish;

**8.4.2.** Qarz oluvchining Sotuvchi va “**ITRUST SOLUTIONS CO**” MChJ oldidagi majburiyatlarini ta‘minlash maqsadida Mahsulot uchun Sotuvchi hamda dasturdan foydalanganlik uchun “**ITRUST SOLUTIONS CO**” MChJ hisobraqamlariga Onlayn mikroqarz bo‘yicha ajratilgan pul mablag‘larini o‘tkazib berish.

**8.4.3.** Individual shartlar va Ommaviy oferta shartlari bo‘yicha Qarz oluvchiga, uning turmush o‘rtog‘iga, qarindoshlariga, ish beruvchilariga Bankka ma’lum bo‘lgan aloqa vositasi raqamlariga qo‘ng‘iroq qilish, xatlar, elektron va SMS xabarlar yuborish;

**8.4.4.** Qarz oluvchi, uning turmush o‘rtog‘i, qarindoshlari, ish beruvchilar bilan Individual shartlar va Ommaviy oferta shartlari bo‘yicha Qarz oluvchining majburiyatlari bajarilishini ta‘minlash bo‘yicha muzokaralar (uchrashuvlar) o‘tkazish;

**8.4.5.** Qarz oluvchining daromadi to‘g‘risida ish beruvchidan ma’lumotlarni talab qilish, Onlayn mikroqarzni so‘ndirish uchun Qarz oluvchiga tegishli bo‘lgan pul mablag‘larini (oylik ish haqi, nafaqa va hokazolar) yo‘naltirish talabi bilan ish beruvchiga murojaat qilish.

**8.4.6.** Bunda, Bank tomonidan yuqorida hatti-harakatlarni amalga oshirish bank sirini oshkor qilish deb hisoblanmaydi.

## 9. MAJBURIYATLARNI BAJARMASLIK HOLATLARI

**9.1.** Ushbu bandda keltirilgan hodisalardan biri yoki bir nechtasining yuzaga kelishi majburiyatlarni bajarmaslik holati hisoblanadi va Onlayn mikroqarzni muddatidan oldin to‘liq qaytarish uchun asos bo‘ladi:

**9.1.1.** Qarz oluvchi Onlayn mikroqarz bo‘yicha to‘lovlarini Individual shartlarga muvofiq belgilangan muddatda amalga oshirmagan bo‘lsa;

**9.1.2.** To‘lov jadvalida belgilangan muddatlarni buzgan holda Onlayn mikroqarz bo‘yicha to‘lovlarini amalga oshirish muddati shartnomasi Onlayn mikroqarz olingan sanadan umumiyl miqdorda 70

(yetmish) kalendar kundan oshganda;

**9.1.3.** Haqqoniy bo‘lmagan hujjat va ma’lumotlarni taqdim qilish orqali Bankni atayin chalg‘itish;

**9.1.4.** Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashuvi yoki Individual shartlar va Ommaviy oferta bo‘yicha majburiyatlarini bajarmaslikka olib keluvchi ma’lumotlarni yashirish;

**9.1.5.** Qarz oluvchining Bank oldidagi majburiyatlarini bajarishiga ta’sir ko‘rsatadigan boshqa hodisalar;

**9.1.6.** Onlayn mikroqarz bo‘yicha to’lovlarni to‘lashga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan Ommaviy ofertaning boshqa shartlarini buzish;

**9.1.7.** Onlayn mikroqarzni qaytarish va to‘lashga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan Individual shartlar va Ommaviy oferta bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa shartnoma (sug‘urta va boshqalar) shartlarining buzilishi.

**9.2.** Ommaviy ofertaning 9.1.-bandida nazarda tutilgan holatlар yuzaga kelgan taqdirda yoki Qarz oluvchi Individual shartlar va Ommaviy oferta bo‘yicha majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarmaslik holati yoki Qarz oluvchi tomonidan Onlayn mikroqarz miqdorini to’lay olmaydigan holatlari yuzaga kelganida, Bank amaldagi qonunchilikka, mazkur Ommaviy ofertaga, asosan ta’minotni undirib olish uchun qaytarib bo‘lmaydigan va so‘zsiz (shartsiz) huquqqa ega bo‘ladi.

## **10. NIZOLARNI HAL ETISH**

**10.1.** Ommaviy ofertani bajarish bilan bog‘liq barcha nizo va kelishmovchiliklar muzokaralar yo‘li bilan ko‘rib chiqiladi va hal qilinadi.

**10.2.** Barcha nizo, kelishmovchiliklar yoki talablar ushbu Ommaviy oferta yoki uni tuzish, o‘zgartirish kiritish, ijro etish, buzilishi, tugatish, muddatidan oldin tugatish va amal qilishi bilan bog‘liq xolatlarni hal qilish quyida keltirib o‘tilgan shaklda amalga oshiriladi:

**10.2.1.** Bank joylashgan hududdagi tegishli sudda ko‘rib chiqiladi;

**10.2.2.** Yoki O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi qoshidagi Hakamlik sudida uning reglamentiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi qoshidagi Hakamlik sudining raisi tomonidan tayinlanadigan tarkibi bitta sudyadan iborat bo‘ladi. Hakamlik sudining qarori Taraflar uchun yakuniy deb hisoblanadi;

**10.2.3.** Yoki “DS Legal Centre” MCHJ huzuridagi doimiy faoliyat yurituvchi hakamlik sudida. Nizolar “DS Legal Centre” MCHJ huzuridagi doimiy faoliyat yurituvchi hakamlik sudi tomonidan ko‘rib chiqilgan taqdirda, sud ishi sudning sudyasi Haydarov Jahonbek Joyliyevich tomonidan yakka tartibda ushbu Hakamlik sudining Qoidalariga muvofiq hal qilinadi.

**10.3.** Yuqorida qayd etib o‘tilgan sudlardan biriga da’vo arizasini berishni tanlash Da’vogar huquqi hisoblanadi.

**10.4.** Qonunda yoki ushbu Shartnomada nazarda tutilgan asoslar yuzaga kelgan hollarda, Taraflar ushbu bilan so‘zsiz va qaytarib bo‘lmaydigan tarzda o‘zlari uchun quyidagilarni tasdiqlaydilar va o‘rnatadilar:

**10.4.1.** Bank sud buyrug‘ini berish to‘g‘risida ariza bilan o‘rnatilgan tartibda tegishli sudga murojaat qilish huquqiga ega bo‘ladi;

**10.4.2.** Ushbu Ommaviy oferta buyruq tartibida Bankning talablarini ko‘rib chiqish bo‘yicha Taraflar o‘rtasida tuzilgan yozma kelishuvi bo‘lib, Bank tomonidan sudga ariza bilan murojaat qilish uchun asos hisoblanadi.

**10.5.** Nizolar yuzaga kelganda barcha bank yozuvlari va ko‘chirmalari mazkur Shartnomaga bo‘yicha taraflarning majburiyatlarini isbotlovchi asosiy (prima facie) dalil deb hisoblanadi.

**10.6.** Ushbu Ommaviy oferta barcha taraflar uchun majburiydir va Taraflar o‘rtasida yuzaga keladigan nizo va kelishmovchiliklarni yechish dalili sifatida sudda qo‘llaniladi.

## **11. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

**11.1.** Ushbu Ommaviy oferta akseptlangan paytdan boshlab kuchga kiradi va barcha taraflar o‘z majburiyatlarini mazkur Ommaviy ofertaga muvofiq bajargunga qadar amal qiladi.

## **12. YAKUNIY QOIDALAR**

**12.1.** Qarz oluvchi tomonidan, masofaviy aloqa kanallari orqali bank operatsiyalari davomida amalga oshirilgan tasdiqlashlar, qog‘oz hujjatdagi yozma imzo bilan bir xil yuridik ahamiyatga ega.

**12.2.** Taraflar, raqamli shakldagi hujjatlar, Qarz oluvchi imzolagan bosma hujjatlar bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanligini tasdiqlaydilar. Binobarin, raqamli formatda tuziladigan hujjat, Taraflarlar o‘rtasidagi nizolar kelib chiqishida sabab bo‘la olmaydi.

**12.3.** Onlayn mikroqarz taqdim etish shartnomasi bo'yicha mikroqarz pul mablag'lari miqdori Qarz oluvchining maxsus hisobraqami to'ldirilgandan so'ng va ushbu hisobraqamdan Mahsulot uchun Sotuvchi hamda dasturdan foydalanganlik uchun "ITRUST SOLUTIONS CO" MChJ hisobraqamlariga o'tkazilgan sanadan boshlab tuzilgan hisoblanadi, va Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

**12.4.** "inTend.uz" tizimi orqali amalga oshiriladigan harakatlar, Qarz oluvchining Onlayn mikroqarzni olish vaqtidagi haqiqiy joylashgan joyidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan deb hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

### **13. BANK MANZILI VA REKVIZITLARI**

"Orient Finans" Xususiy aksiyadorlik tijorat banki ("Orient Finans" XATB);

Yuridik manzil: 100052, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Osiyo ko'chasi, 5-uy

Tel: +998 71 205-55-55

Bank Kontakt-markazi: 998 71 200 88 99

### **DIQQAT!**

Agar kimdir Sizga va Sizning yaqinlaringizga kredit olishda yordam berishni taklif qilsa, bilingki,

"Orient Finans" XATB bevosita mijozlar bilan ishlaydi va vositachilar xizmatlaridan foydalanmaydi.

## Foydalanish shartlari va talablariga rozilik berish to‘g“risida Ommaviy oferta

Men, “Foydalanuvchi” sifatida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tuzilgan ushbu hujjat rasmiy yozma ommaviy oferta maqomiga ega ekanligiga rozilik bildiraman va quyidagi shartlarni va talablarni qabul qilaman:

### ATAMALAR va TUSHUNCHALAR

**Jamiyat** – “INTEND TRADERS GROUP” mas’uliyati cheklangan jamiyat.

**Foydalanuvchi** – ushbu Ommaviy ofertada ko‘zda tutilgan harakatlarni amalga oshirish orqali inTend.uz da ro‘yxatdan o‘tib, o‘z oldiga bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan Mahsulotlarni sotib olishni maqsad qilib qo‘ygan shaxs. Mahsulotlar Hamkorlar tomonidan taqdim etiladi.

**Hamkor** – inTend.uz da ro‘yxatdan o‘tgan va Mahsulotlarni inTend.uz vositasida sotish uchun taqdim etuvchi yuridik shaxs (yoxud yuridik shaxs bo‘lmagan yakka tartibdagи tadbirdor).

**inTend.uz** – Mahsulotni Foydalanuvchiga bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan Hamkor savdo nuqtasida sotish maqsadida Jamiyat, Bank (yoki Bankning vakolatiga ega to‘lov xizmati), Hamkor va Foydalanuvchilar orasidagi o‘zaro axborot almashuvini ta‘minlab beruvchi intellektual mulk tarzidagi mahsulot.

**Mahsulotlar** – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan muomalaga chiqarish man etilmagan va cheklanmagan mahsulot (xizmat)lar.

**Foydalanuvchining shaxsiy kabinetи** – Mahsulotlarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olish uchun moliyaviy mablag‘larning cheklov summasi hamda barcha sotib olingan mahsulotlarning tafsilotlari bo‘yicha zarur ma’lumotlar to‘planadigan inTend.uz maxsus bo‘limi.

**Bonuslar** – tizim orqali aniqlanadigan, Jamiyat tomonidan o‘rnatilgan shart va talablar asosida to‘planadigan hamda ishlatiladigan keshbek va/yoki ballar ko‘rinishidagi mablag‘lar.

### 1. OMMAVIY OFERTA PREDMETI

1.1. Ommaviy oferta Predmeti bo‘lib Foydalanuvchining Hamkorda mavjud Mahsulotlarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olish uchun inTend.uz dan foydalanishga roziliги hisoblanadi.

1.2. Foydalanuvchi tomonidan Jamiyat bilan ushbu Ommaviy ofertani tuzish muayyan harakatlarni ketma-ket bajarish (akseptlash) orqali amalga oshiriladi.

1.3. Ushbu Ommaviy ofertani akseptlash quyidagilarni bildiradi:

- ushbu ofertaning shartlarini Foydalanuvchi tomonidan to‘liq va so‘zsiz, hech qanday qisqartirish va/yoki cheklovlarsiz qabul qilinganligini;

- inTend.uz da Foydalanuvchining Shaxsiy kabinetи yaratilganligini;

- inTend.uz orqali bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan mahsulotlarni sotadigan Hamkorlarni tanishtirish imkoniyatini taqdim etilishini;

- inTend.uz orqali bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olingan mahsulotlarni ko‘rib chiqish imkoniyatini taqdim etilishini;

- Hamkor saytida onlayn tarzda tanlab olingan Mahsulotlarni Hamkor tomonidan yetkazib berilishini;

- inTend.uz tizimida muvaffaqiyatli ro‘yxatdan o‘tganda vakolatli muassasalar belgilagan tarif bo‘yicha Foydalanuvchi bank kartasidan pul mablag‘lari echilishini;

- bo‘lib-bo‘lib to‘lash jadvaliga ko‘ra Foydalanuvchi bank kartasidan pul mablag‘larining avtomatik tarzda echilishini;

- shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishslash va uzatishga rozilik berishni.

1.4. Ushbu Ommaviy oferta shartlarini amaldagi qonunchilikka muvofiq so‘zsiz qabul qilish (akseptlash) inTend.uz ga kirish huquqini beradi.

### 2. TIZIMDAN FOYDALANISH TARTIBI

2.1. Foydalanuvchi inTend.uz tomonidan talab qilingan barcha ma’lumotlarni kiritadi.

2.2. inTend.uz orqali sotib olinadigan Mahsulotlarga sarflash imkonini beruvchi ishonchli cheklov summasini Foydalanuvchiga ajratib berish imkoniyatini aniqlash maqsadida inTend.uz barcha olingan ma’lumotlarni vakolatli muassasalarga yuboradi.

2.3. Agar vakolatli muassasa Foydalanuvchiga muayyan sabablarga ko‘ra ishonchli cheklov summasini ajratilishini rad etsa, Foydalanuvchi inTend.uz da ro‘yxatga olinmaydi.

2.4. Foydalanuvchi inTend.uz funksionalidan faqat ishonchli cheklov summasi doirasida foydalanishi mumkin.

2.5. Foydalanuvchi bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olmoqchi bo‘lgan mahsulotni bevosita Hamkordan (yoki Hamkorning saytidan) tanlab oladi.

2.6. Hamkor inTend.uz orqali Foydalanuvchining ushbu niyati haqida mahsulot va bo‘lib-bo‘lib to‘lash shartlari to‘g‘risidagi barcha zarur ma’lumotlarni kiritish orqali Jamiyatga xabar beradi.

2.7. Foydalanuvchi o‘zining Shaxsiy kabinetida bu ma’lumotlarni tekshiradi va ularni tasdiqlaydi.

2.8. Hamkor inTend.uz orqali Jamiyatni Foydalanuvchi tomonidan tanlab olingen mahsulot bo‘yicha xabardor qiladi.

2.9. Foydalanuvchi Hamkor bilan hamjihatlikda Mahsulotning sifatini va soz ishslashini hamda Foydalanuvchi tomonidan tanlangan Mahsulotning barcha hujjatlari mavjudligini mustaqil tekshirishi va Mahsulot ishga yaroqli holatda ekanligiga va hech qanday shikastlangan joylari va kamchiliklari yo‘qligiga ishonch hosil qilishi shart.

2.10. Foydalanuvchining inTend.uz dagi tasdiqnomasi Foydalanuvchi tomonidan Mahsulotni oлган sanasi sifatida e’tirof etiladi va u Mahsulotni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi bo‘lib hisoblanadi.

2.11. Agar Foydalanuvchi bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan olinayotgan Mahsulot uchun boshqa moliyalashtirish manbalari (masalan, tijorat banki) hisobidan to‘lig‘ligicha to‘lash yoli orqali sotib olmoqchi bo‘lsa, Foydalanuvchi ushbu manbani Mahsulotning butun davr uchun hisoblangan qiymatini yechib olish uchun inTend.uz da ko‘rsatishi shart.

### **3. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI**

#### **3.1. Jamiyatning majburiyatları:**

- inTend.uz ning axborot xavfsizligi talablariga muvofiq uzluksiz ishslashini ta’minlash;
- bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan Foydalanuvchi mahsulotni sotib olishi mumkin bo‘lgan barcha Hamkorlarni inTend.uz da ko‘rib chiqish imkoniyatini yaratish;
- bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan Foydalanuvchi sotib olishi mumkin bo‘lgan mahsulotni inTend.uz da ko‘rib chiqish imkoniyatini yaratish;
- inTend.uz orqali sotib olingen mahsulotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning saqlanishini ta’minlash.

#### **3.2. Foydalanuvchining majburiyatları:**

- inTend.uz dan foydalanish chog‘ida Ommaviy ofertaning barcha shartlari va talablariga rioya etish;
  - Foydalanuvchining Shaxsiy kabinetiga oid identifikasiya ma’lumotlarining to‘liq saqlanishini ta’minlash va ularni hech qachon uchinchi shaxslarga taqdim etmaslik;
  - Foydalanuvchining Shaxsiy kabinetiga oid identifikasiya ma’lumotlarini saqlash shartlarining buzilishi sababli vujudga kelgan zarar uchun Jamiyatni jalb etmagan holda shaxsan o‘zi javobgar bo‘lish;
  - bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olinadigan mahsulotlarga nisbatan inTend.uz da qo‘ylgan shartlar va talablarga rioya etish;
  - Mahsulotning sifatini va soz ishslashini hamda barcha hujjatlari mavjudligini mustaqil tekshirish;
    - Hamkordan bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olinishi mo‘ljallanayotgan Mahsulot ishga yaroqli holatda ekanligiga va hech qanday shikastlangan joylari va kamchiliklari yo‘qligiga to‘liq ishonch hosil qilish;
    - Mahsulotga bog‘liq har qanday muammolar yuzaga kelganda, ushbu holatning vujudga kelishiga oqilona munosabatda bo‘lgan holda, Jamiyatni jalb etmasdan, inTend.uz orqali tanlab Hamkordan olingen mahsulot yuzasidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Hamkorga murojaat etish;
    - tanlangan Mahsulot to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ularni inTend.uz da tasdiqlashdan oldin sinchiklab tekshirish (qiymati, to‘lash davri, soni va h.k.);
    - inTend.uz dan qonunga hilof maqsadlarda foydalanmaslik, Foydalanuvchi tomonidan boshqa shaxslarga, jumladan Hamkorga yetkazilgan har qanday turdag'i zarar uchun javobgarlikni Jamiyatga yuklamaslik;
    - Jamiyat tomonidan e’lon qilinayotgan xabarnomalar, bildirishlar, o‘zgarishlarni kuzatib borish;
    - Ommaviy ofertaga keyinchalik kiritiladigan barcha o‘zgarishlarni qabul qilish.
    - Ma’suliyatli bo‘lib, sotib olinayotgan mahsulotni xarid qilishdan oldin unga oid barcha kirim va buxgalteriya hujjatlarini (shu jumladan, zarur hollarda bojxona hujjatlarini) tekshirish uchun barcha

choralarni ko'rish.

- Hamkor tomonidan taqdim etilgan Mahsulotning mezonlarini inTend.uz ga kiritilgan mezonlar bilan solishtirish va ularning bir xilligiga inTend.uz elektron tarzda tasdiqlashdan oldin to'liq ishonch hosil qilish.

- Mahsulot Hamkorga qaytarilib, buyurtma inTend.uz tizimida bekor qilingan taqdirda, ishonchli cheklov summasining 1,5 % miqdorida sug'urta summasini to'lab berish.

#### **4. TARAFLARNING HUQUQLARI**

##### **4.1 Jamiyatning huquqlari:**

- inTend.uz ni modifikasiya qilish va funksionaligi yaxshilash;

- Nosozliklar, xatoliklar va uzilishlar aniqlangan holda, shuningdek profilaktika ishlarini o'tkazish hamda inTend.uz ga ruxsatsiz kirish holatlarining olidini olish maqsadida inTend.uz funksionalini ta'minlab turuvchi dasturiy va/yoki apparat vositalar faoliyatini vaqtinchalik to'xtatish turish;

- O'zbekiston Respublikasi nazorat va sud organlaridan tegishli so'rovnomalari va talabnomalar kelib tushganda Foydalanuvchining inTend.uz ga kirish yolini yopib qo'yish;

- Mahsulotga oid har qanday muammolar vujudga kelgan taqdirda, ushbu holat va vaziyatning vujudga kelishiga oqilona munosabatda bo'lgan holda hal etish uchun Foydalanuvchini to'g'ridan-to'g'ri Hamkorga bevosita yo'naltirish;

- Foydalanuvchiga bonuslar taqdim etish;

- quyidagi holatlarda Foydalanuvchining Shaxsiy kabinetiga kirish yoli yopib qo'yiladi:

- Jamiyatga boshqa Foydalanuvchilar va/yoki uchinchi shaxslardan Foydalanuvchi ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotganligi to'g'risida xabar kelib tushganda;

- inTend.uz ning biron bir qismiga noqonuniy dasturiy va texnik o'zgarishlar kiritish (kiritishga urinish) holati aniqlanganda;

- zarur bo'lgan hollarda Foydalanuvchi bank kartasidan pul mablag'larini avtomatik tarzda echish choralarini ko'rish.

##### **4.2. Foydalanuvchi quyidagi larga haqli:**

- inTend.uz dan istalgan mahsulotni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib olish;

- Jamiyat tomonidan taqdim etilgan bonuslarni ushbu Ommaviy oferta talablari hamda Jamiyat saytida e'lon qilinadigan yangiliklar asosida ishlatish;

- inTend.uz dan to'g'ri foydalanish masalasida Jamiyatga maslahat so'rab murojaat etish;

- inTend.uz dan sotib olingan mahsulotlarni ko'rib chiqish.

#### **5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

5.1. Foydalanuvchi Ommaviy oferta bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan holatlarda, Foydalanuvchi, bunda Jamiyat jalb etilmagan holda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq to'liq javobgar bo'lib hisoblanadi.

5.2. inTend.uz dan foydalanish jarayonida Foydalanuvchi ko'rgan bilvosita/to'g'ridan-to'g'ri bo'limgan zarar yoxud boy berilgan foyda uchun Jamiyat javobgar bo'lmaydi.

5.3. Jamiyat inTend.uz ning ish faoliyatini ta'minlovchi Foydalanuvchining dasturiy-apparat majmuining nosozligi, xatoga va uzilishga yo'l qo'ygani uchun, shuningdek Jamiyatga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra Foydalanuvchining Jamiyat dasturiy va/yoki apparat vositalariga vaqtinchalik kira olmagani uchun, shuningdek bu bilan bog'liq tarzda ko'rilgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi.

5.4. Jamiyat Foydalanuvchining quyidagi sabablarga ko'ra vujudga kelgan zararlari uchun javob bermaydi:

- Foydalanuvchi inTend.uz ga kirish uchun foydalanayotgan uskunada yoki dasturiy ta'minotda "viruslar" yoki boshqa zararli dasturlari mavjud bo'lsa;

- bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan mahsulotga buyurtmani rasmiylashtirish chog'ida inTend.uz da foydalaniladigan rekvizitlar noto'g'ri to'ldirilgan bo'lsa;

- Foydalanuvchi tomonidan Ommaviy oferta shartlari buzilgan holda;

- uchinchi shaxslarning, shu jumladan Foydalanuvchining identifikasiya ma'lumotlaridan foydalanuvchilarning noqonuniy xatti-harakatlari uchun;

- Foydalanuvchi tomonidan to'lovlarni o'tkazish tartibi buzilganligi uchun;

- inTend.uz dan bevosita yoki bilvosita foydalanish paytidagi xarajatlar yoki Foydalanuvchiga yetkazilgan zarar uchun;

- Jamiyatning aybi bilan sodir etilmagan ishdagi xatoliklar, o'tkazib yuborishlar, uzilishlar natijalari uchun;

- inTend.uz ga kirish amalga oshirilayotgan umumiyligi foydalanishdagi aloqa kanallarining sifati uchun, shuningdek Jamiyatning ta'sir ko'rsatish, nazorat qilish vakolatlari doirasiga kirmaydigan tarmoqlarning alohida jahbalarining faoliyati uchun.

5.5. Agar Foydalanuvchi sotib olinayotgan Mahsulotning mezonlarini va rekvizitlarini inTend.uz da noto'g'ri tasdiqlagan bo'lsa, bunday harakatlar natijasida ko'rilgan zarar uchun Jamiyat javobgar hisoblanmaydi.

5.6. Foydalanuvchining inTend.uz da kirish yoli yopib qo'ilgan taqdirda, Jamiyat bu haqda har qanday uchinchi taraflarni xabardor etish yoki xabardor etmaslik bo'yicha, shuningdek ana shunday xabardor etish yoki xabardor etmaslik sababli vujudga kelgan oqibat uchun javobgar bo'lmaydi.

5.7. Foydalanuvchi quyidagilar bilan bog'liq har qanday majburiyatlar va xarajatlar bo'yicha Jamiyatni javobgar yoki qo'shimcha javobgar qilmaslikka rozilik bildiradi:

- Jamiat aybi bilan bo'limgan holda vaqt-i-vaqt bilan inTend.uz ga kirish imkoniyatining cheklanishi;

- Foydalanuvchining identifikasiya ma'lumotlaridan foydalanib, boshqa shaxslar tomonidan inTend.uz ga kirish imkoniyati qo'llanilishi;

- bo'lib-bo'lib to'lash jadvaliga ko'ra Foydalanuvchi bank kartasidan pul mablag'larining avtomatik tarzda echilishi.

## **6. FORS-MAJOR**

6.1. Ushbu Ommaviy oferta qabul qilinganidan keyin vujudga kelgan Ommaviy ofertaga oid majburiyatlarning to'liq yoki qisman bajarilmaganligi, agar ana shunday bajarmaslik suv toshqini, yong'in, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, urush yoki harbiy harakatlar, davlat organlarining harakatlari kabi yengib bo'lmash kuch oqibatida sodir etilgan bo'lsa, taraflardan hech qaysi biri javobgar bo'lib hisoblanmaydi.

## **7. O'ZGARISHLAR KIRITISH VA BEKOR QILISH TARTIBI**

7.1. Ommaviy ofertaga o'zgarishlar (qo'shimchalar) kiritish Jamiat tomonidan inTend.uz da e'lon qilish orqali, ularning kuchga kiritilishi muddatini ko'rsatgan holda bir taraflama amalga oshiriladi. Foydalanuvchi ko'rsatilgan o'zgarishlarga rozi bo'limasa, inTend.uz dan foydalanmasligi yoki o'rnatilgan tartibda Ommaviy ofertani bekor qilishi mumkin.

7.2. Ommaviy oferta muddati belgilanmagan va taraflarning tashabbusi bilan istalgan paytda bekor qilinishi mumkin.

7.3.Ommaviy oferta quyidagi holatlarda bekor qilinishi mumkin:

7.3.1. Foydalanuvchi tarafidan:

- Jamiatga yozma yoki elektron ko'rinishdagi ariza yuborish orqali (Jamiyatni Ommaviy oferta bekor qilinishi to'g'risida lozim tarzda ogohlantiruvchi boshqa shaklda bo'lishi ham mumkin). Jamiat tomonidan e'tirozlar mavjud bo'limasa, Ommaviy oferta mazkur xabarnoma olinganidan keyin 5 (besh) kun o'tgach bekor qilingan hisoblanadi.

- Foydalanuvchi tomonidan o'z Shaxsiy kabinetini yopish orqali.

7.3.2. Jamiat tarafidan:

- Foydalanuvchi tomonidan ushbu Ommaviy oferta shartlari buzilgan taqdirda;

- nazorat qiluvchi va sud organlarining tegishli xabarnomasi asosida.

## **8. NIZOLARNI HAL ETISH**

8.1. Ommaviy ofertani bajarish borasida vujudga kelgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan ko'rib chiqiladi va hal etiladi.

8.2. Jamiatga nisbatan e'tirozlar yozma shaklda taqdim etiladi va amaldagi qonunchilikda belgilangan muddat ichida ko'rib chiqilishi shart. Taraflar o'zaro kelishuvga erishmagan taqdirda, barcha nizolar Jamiat joylashgan hududdagi vakolatlari organ tarafidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi muvofiq ko'rib chiqiladi.